

JAHON BOLALAR ADABIYOTI

ANGLIYA



G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2016

821.111-93 - Умумий адабиёт

A64

UO'K 821.111-3

KBK 83.8 (3)

J-49

Tuzuvchi va tarjimon

Miraziz A'zam

Jahon bolalar adabiyoti: Angliya / To'plab nashrga tayyorlovchi M.A'zam –
Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2016. – 108 b


Qadrlı o'quvchilar! Nashriyotimiz siz azizlarga 10 jilddan tashkil topgan «Jahon bolalar adabiyoti» seriyasini taqdim etadi. Kitoblar jahon bolalar adabiyoti yozuvchi va shoirlarining ertak, hikoya, she'r va boshqa ko'plab janrdagi asarlarni o'z ichiga qamrab olgan. Qo'lingizdagi ushbu birinchi jildda siz Angliya bolalar adabiyoti bilan yaqindan tanishasiz.

UO'K 821.111-3

KBK 83.8 (3)

ISBN 978-9943-03-734-2

© G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy
uyi, 2016



Tapme.



TARJIMONDAN

Men 50 yildan buyon o'zbek o'quvchilarini jahon bolalar adabiyoti bilan tanishtirib kelaman. So'nggi yillarda bir qancha o'qituvchilar, o'quvchi va talabalar, adabiyot mutaxassislari bolalar adabiyotiga oid barcha tarjimalarimni jamlab berishimni so'rardilar. Keyingi ikki yil ichida ko'pchilikning mana shu ehtiyojlarini hisobga olib, tarjimalarimdan to'plam tuzishga kirishdim. Va nihoyat mazkur to'plam vujudga keldi.

Kitob tayyor bo'lganda undagi kamchiliklar ko'zga tashlandi. Ispaniya, Vengriya, Portugaliya, Gretsiya kabi Yevropa mamlakatlaridan, Afrika yurtlaridan, Chilidan boshqa Janubiy Amerika mamlakatlaridan, Osiyoning Xitoy, Hindiston, Indoneziya, Koreya kabi qator davlatlaridan, Avstraliyadan bolalar adabiyoti namunalari yo'qligi, bu yurtlarning tillarini biluvchi mutaxassislar uchun hali keng maydon ochiq qolganligini ko'rsatadi.

Tanlangan millatlarning bolalar adabiyoti namoyandalari va ularning faoliyati haqida to'laroq tasavvur uyg'otish va kitobning o'qishli bo'lishini ta'minlash maqsadida, kamida 5-6, ko'pida 10-15 she'r, ba'zan 1-2 bosma taboq hajmida 1-2 hikoya yoki bir necha ertak, doston va afsonalar tanlab tarjima qilindi.

Ushbu asarlar turli yoshdagi bolalar va o'smirlarga mo'ljallangan. Bu yerda bog'cha bolalariga mos keladiganlari ham, kichik maktab o'quvchilariga to'g'ri keladiganlari ham, yuqori sinflarda o'quvchi o'smirlarga atalganlari ham bor.

Antologiya o'qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar, kutubxonachilar, talabalar va har qanday bolalar adabiyoti bilan qiziquvchi kitobxonlarga ham qo'llanma vazifasini o'tay oladi.

VILYAM BLEYK



Ajoyib ingliz shoiri va rassomi Vilyam Bleykning nomi zamondoshlariga unchalik yaxshi tanilmagan edi. Asosiy kasbi o'ymakor bo'lmish Londonda yashovchi bu kishi tushgan buyurtmalarni qilib berish bilan kun kechirardi.

Bleyk mohir chizmakash musavvir bo'lib, Dantening «Ilohiy komediya»sini ham bezagan edi. O'z she'rlarini

nashrdan chiqarishga imkoni bo'lmagani uchun misga o'yib yozar va mis bilan ularni o'zi qog'ozga tushirib kitob holiga keltirar, do'stlariga sovg'a qilardi. Uning umri qashshoqlikda o'tdi, hatto o'ligini ham jamoat mablag'i hisobidan umumiy qabristonga dafn etishdi. Endi esa uning haykali Vestminster abbatligida eng buyuk ingliz shoirlari qatoriga qo'yilgan. Uning o'z qo'li bilan yasagan kitoblari esa muzeylarning noyob asarlari bo'lib qoldi.

Bleykning nomi XIX asrning ikkinchi yarmida kashf etildi – asarlari umumxalq muhabbatini qozondi. Birinchi bo'lib ayrim adabiy arboblar tomonidan o'tmishdosh sifatida tan olindi.

Bleykning bolalar dunyosiga eng yaqin asari «Beozor qo'shiqlar» turkumi hisoblanadi. Borliqni hali hayotiy tajriba orttirmagan bola nazaridan tasvirlagan shoir «Baxt nima?» degan savolga «Baxt – bu kulayotgan bola, chunki u bilan birga butun olam quvonadi va kuladi, ona tabiat u bilan jonlanadi va barq uradi» deya javob beradi. Hatto uning «Qora bola», «Kichkina mo'ri tozalovchi», «Adashgan



bola», «Topilgan bola», «Yaqin kishilarning qayg‘usi» kabi kam-bag‘allik va alamlarni tasvirlovchi she‘rlari ham shoir ijodidan qoladigan yorug‘lik va quvonch taassurotlarini bo‘g‘maydi; mehr va yaxshilik, kichkintoylarga rahm-shafqat, ularning hayotini yengillatish istagi Bleykning butun ijodiga xos xususiyatdir.

Atrofimizdagi olamning go‘zalligi haqida, yozgi o‘tloqlarning rang-barangligi, gulga qo‘nib turgan rangdor ko‘ylakli kapalak haqidagi, bolalarning quvnoq, betashvish o‘yinlari haqidagi she‘rlarning hammasi kichkintoy o‘quvchilarni tabiat va fasllarni ko‘rishga, ularda go‘zallik tuyg‘usini tarbiyalashga o‘rgatadi. Qo‘shiqularining otalarga xos iliq, samimiy ohangi bola qalbini isitadi, dunyoni bilish quvonchini beradi.

Shoirning she‘rlari xalq og‘zaki ijodining kayfiyati va kuyi bilan sug‘orilgan, xalq qo‘shiqulariga xos musiqiy takrorlar, turli-turli raqsobop vaznlar va qofiyalarning tabiiy ohangdoshliklari qalbni yayratadi.

She‘rlar

QILICH VA O‘ROQ

Qilich so‘ylar jangda o‘limdan har dam,
O‘roq so‘ylar hayot, mangu o‘choqdan.
Ammo qilich qancha qahhor bo‘lsa ham,
Ustun kelolmagan hech vaqt o‘roqdan.

YO‘LBARS

Yo‘lbars, yo‘lbars, chaqnab yurasan,
Yarim tunda o‘rmon ora san,
O‘tli timsolingni bunchalar,
O‘zi o‘ylab topgan qay chevar?



Yonib o'char cho'g'lar ko'zingdan,
 Tubanliklar, ko'klar yuzida.
 Bekinganding qayda yuz yillab?
 Qanday topdi, qandayin qo'llar?

Tomiringga qanday ulug' zot
 Quдрat bergan, atab zo'r hayot?
 Senga tekkan qo'llar sezgandir,
 Yuragingning tepishin og'ir?

Ko'z o'ngingda qizitib o'choq,
 Kim temirni tobladi qay choq?
 Kaj omburda shaylarkan kishan,
 Kim bilibdi seni bog'lashin?

Yomg'ir yog'ib yulduzli ko'kdan,
 Qorishganda ko'zyoshing bilan,
 O'zi bichgan maxluq holiga
 Kuldimikin Xoliq va nega?

Shunday kuchli bo'lgan oliy zot,
 Shu qudrati kuchi-la nahot
 Qo'zini ham yaratgan bo'lsa,
 Senday olov oldida qo'ysa?

Yo'lbars, yo'lbars, chaqnab yurasan,
 Tunda daraxtzorlar ora san.
 Kimning o'lmas qo'llari bilib,
 Qurdi seni vahshatli qilib?



KO'RISH MUMKIN

Bir lahzada ko'rish mumkin mangulikni,
Keng dunyoni qumning bitta donasida.
Bir siqimda ko'rish mumkin cheksizlikni,
Butun ko'kni bir lolaning kosasida.

TUSH


Bugun yotsam uyquda
Tush o'z naqshin to'qidi:
Yo'lda ketgan mahali
Adashgandi chumoli,

Bir gulga chiqdi sekin,
Qo'rqardi yolg'iz, miskin.
Xavotir ichra ko'zi
Dedi o'ziga o'zi:

– Chumoli bolalarim
Ko'zyoshi to'kib yum-yum,
Qarab qorong'i ko'yga,
Yig'larlar kirib uyga.

Chiroqqurt ko'rdim birdan,
Bizdaylarga achingan.
– Kim ingrab buzdi uyqum? –
Deb so'radi o'tmay zum.

– Chirog'imni yoqdim tez,
Izimdanda kelar qo'ng'iz.
Sen ortdan kel uygacha,
Ziyon ko'rmaysan hecham.





XURSAND BOLA

– Ikki kunlik
Hayotim.
Yo‘qdir hozircha otim.

– Men qo‘yaymi otingni?
– Yashayapman, xursandman,
Xursand qo‘ygin otimni!

Ikki kun xursand qildi,
Siyladi meni
Taqdir.

Xursand qo‘shiq aytaman:
Sen ham xursand
Yasha bir!

«BEOZOR QO‘SHIQLAR»GA BOSHLAMA

Nay chalardim yotib o‘tloqqa,
Bulut keldi ko‘kka shu choqda.
Ustida bir beshik bor edi,
Unda yotgan bolakay dedi:

– Hoy og‘ajon, biroz shoshmay tur,
Men uchun bir chalib ber qo‘shiq!
Chalib berdim, qalbimda surur,
Yana chaldim ko‘ngildan jo‘shib.

– Endi baxtli qamish nayingni
Qo‘y-da, qo‘shiq aytib ber o‘zing, –
Dedi bola egib bo‘ynini,
Miltiratib zangori ko‘zin.



– Menga aytgan qo‘shiqaringni
Yozib qoldir hammaga, hofiz! –
Qichqirdi u, shundan so‘ng tindi,
Erib ketdi issiqda, sassiz...

Ertasiga men tura solib
Qamish qalam yasashga shoshdim.
So‘ng buloqdan ozroq suv olib
Unga tuproq, rangli o‘t qo‘shdim.

Keyin ochib katta daftarni
Yozdim, yozaverdim uzzukun
Ko‘nglimdagi bor quvonchlarni
Bolalarga ulashmoq uchun.


OQSHOM QO‘SHIG‘I

Tog‘da o‘yin boshlandi, sadolari akslandi,
Yangrab ketdi qorong‘i o‘tloq.
Tugaganda og‘ir kun tashvish tugar men uchun
Yurak sokin, sokindir har yoq.

Bolalar, uyga endi! Tog‘ ortida kun so‘ndi,
Endi tungi shudring tushadi.
Endi uyquni urish. Ertalab vaqtli turish.
Quyosh chiqib, ko‘k yorishadi.

– Yo‘q, yo‘q, shoshilish nechun! So‘nmadi-ku hali kun,
Raqslarimiz hali avjida.
Uxlolmaymiz baribir – uchmoqda qushlar axir,
Endigina qaytmoqda poda.

Mayli, kutamiz ozroq, so‘ngach so‘nggi nur-chiroq
Dam olgani qaytamiz ammo.





O'tloq, o'rmonlar bo'ylab tinmas shovqin va tap-tap,
Tepalardan qaytar aks-sado.

KULAYOTGAN QO'SHIQ

Yaproqlar shildirab kulayotgan choq,
Toshlar aro jildirab kuladi irmoq.
Hammaga yuqtirib biz kulgan chog'lar
Aks-sado qaytarib kuladi tog'lar.

Kular javdar ila xursand arpa ham,
Chigirtka xaxolab tinmaydi bir dam,
Kuladi qushchalar, kular qo'ng'izlar,
«Ha-ha-ha! Ha-ha-ha!» kulishar qizlar.

Hammaga tuzalgan chog'i sufralar
Tishlar aro kular xandon pistalar.
Gunoh deb o'ylama, kulib kel sen ham,
Miriqib kulaylik hamma ham, men ham.



EDVARD LIR

XIX asming atoqli shoiri va iste'dodli rassomi Edvard Lir 1812-yilda Angliyaning poytaxti Londonda tug'ilib, 1888-yilda Italiyaning San-Remo degan bahavo shifobaxsh shahrida vafot etgan. Uning asarlarini o'qisangiz, shoir xuddi bizning zamonodoshimizga o'xshab ko'rinadi. U timsolini yaratgan turli hayvonlar va qushlar xuddi tirikday taassurot qoldiradi.



Edvard Lir dunyo bolalar adabiyoti tarixida benihoya xushchaqchaq va sho'x she'rlar muallifi, shuningdek, ingliz adabiyotida limerik degan yangi janr asoschisi sifatida nom qoldirgan.

Limerik Irlandiyadagi bir shaharning oti bo'lib, u yerda qiziq tabiatli odamlar yashardi. Bizning Buxorodagi shirinlar, Farg'onadagi povilg'onlar, yoki Bolgariyadagi gabrovoliklar, Turkiyadagi qora dengizliklar kabi... Edvard Lir besh misradan iborat, a-a-b-b-a tarzida qofiyalanuvchi qiziq hazil she'r shaklini o'ylab topdi. Uning ana shu beshgina satriga biroz qiziq naql, bo'lmagan voqea, latifa yo kulgili hodisa joylangan bo'ladi. Ko'pincha limerikning qahramoni sal telbanamo kishi – yoshi o'tibroq qolgan olifta odam bo'ladi:

Bir chol bor, bir kuni dedi:» Sekinroq!
Butada bir qushcha ko'rgandim shu choq!»
«Kichik qushchamidi?» deya so'radik.
«Yo'q, yo'q, kichik emas, – dedi, – unchalik,
Butadan bor-yo'g'i to'rt bor kattaroq!»



Bunday she'riyat xalq og'zaki ijodidan oziqlangani shundoq ko'rinib turibdi: doston va ertaklarga xos mubolag'a-uydirmalar, aqlga to'g'ri kelmaydigan voqealar, xayollar o'yini va h.k. Shuning uchun ham Edvard Lir o'zining 1846-yilda chiqargan she'riy to'plamini «Uydirmalar kitobi» deb atagan va 1861-yilda yana shu nomda to'ldirib nashr ettirgan edi.

Edvard Lir qiziq tabiatli, odamovi kishi bo'lgan, hayotining so'nggi 20 yilini birdan-bir do'sti – Foss degan mushugi Bilan birga Italiyaning San-Remo degan bir joyida o'tkazgan. U o'z hayoti davomida juda ko'p xastaliklarga duchor bo'lgan. U o'zi haqidagi she'rida baliq yog'i ichishni yoqtirmasligini aytadi. Aftidan, tabiblar unga baliq yog'i ichishni buyurishgan, bu uning sil kasali bilan og'riganligini bildiradi. Ammo og'ir-yengil turli kasalliklar uning bolalar uchun zo'r kitoblar yozishiga xalal berolmadi. Uning butunlay bolalik dunyosiga cho'mishday noyob xususiyati bor edi. U bolalarga ma'naviy boy, zakovatli o'yinlar bilan mashg'ul bo'lish havodiy zarur narsa ekanligini chuqur his qilari va ularga shunday o'yinlarni o'rgatadigan asarlar yozib, rohatlanar edi.

Kenguruning dumida sayohatga jo'nagan jasur O'rdak, yong'oqchaqar bilan qandchaqarning ot minib sayrga chiqishni orzu qilishlari singari voqealar bolalarni mutlaqo qattiq aqliy toliqishlarga olib bormaydi. Aksincha, bolalar bu ostin-ustun dunyoda tartib o'rnatishlari kerakligi, bo'lib o'tayotgan voqealarning sababi va oqibati to'g'risida mulohaza yuritib, haqiqat va odillik to'g'risida o'ylab, o'z qarashlarini aniqlab olishadi. Agar shoir bu g'oyalarni uydirmasiz, yalang'och qilib aytganida edi, aytilgan gap o'quvchini faqat zeriktirar va ichki noroziligiga sabab bo'lar edi.

Shoir hayot haqiqatlarini o'zicha ko'rsatishni, ulardan kutilmagan ma'nolar chiqarishni yaxshi ko'radi. Xayolot mahsuli bo'lgan Pobbil haqida hikoya qilarkan, to'satdan shunday xulosa olib keladiki, o'quvchi undan benihoya katta zavq oladi. Pobbil degan bola Bristol kanalida suzib yurarkan, oyog'ining barmoqlarini nahang baliq (akula) yeb ketadi, shunda uni mana bunday yupatishadi:



Pobblga der Jobika xola:

– Barmoqsiz qolganing yaxshimas, biroq
Ancha durustmasmi – o‘zing bir o‘yla,
Oyoqsiz barmoqdan barmoqsiz oyoq?!

Bu she’rni o‘qigan kitobxon shoir o‘zi ham ich-ichidan bolalarcha kulayotgani va yo achinayotganini yaqqol his qilib turadi.

Edvard Lir bizdan bir necha davrlar ilgari yashagan. U paytlarda hayot boshqacha bo‘lgan. Dunyo g‘amlari, tashvishlari, intilish, armonlari boshqacha bo‘lgan. Ammo uning she’rlari barcha zamondagi bolalar, barcha yurtlardagi o‘quvchilar uchun birday qiziqarli, birday zamonaviy va birday qadrlidir.

She’rlar

EDVARD LIR O‘ZI HAQIDA

Mister Lirga qoyil qolamiz,
Kitoblarni to‘latgan she’rga.
Kimgadir u ezma, betamiz,
Ammo yoqar ahli basharga.

O‘n barmog‘-u qo‘sh ko‘z, qo‘sh quloq
Ato etgan unga Xudoyim.
Quloqlari biroz garangroq,
Qo‘shiq aytmay jim yurar doim.

Kitobi ko‘p javonlarida,
Olib kelgan turli ellardan.
Sharob ichar bo‘sh onlarida,
Ammo sarxush yurmas ulardan.

Lirning turli tanishlari bor,
Mana biri – Foss degan mushuk.



Lirning o‘zi meshday qorindor,
 Boshida yo‘q bir tola ham tuk.
 Chet elda u qo‘lida aso,
 Oq plashda yursa daf‘atan,
 Sho‘x bolalar: – Anovi bobo
 Qochgan, – derlar, – kasalxonadan.

U tog‘larga yo‘l olar goho,
 Yolg‘iz yurib yig‘laydi hiq-hiq,
 Aptekadan bint olar goho,
 Do‘konchadan tuzlangan baliq.

Ispanchalab yozolmaydi she‘r,
 Yoqmas – baliq yog‘i yutgani...
 Qanday yaxshi bu dunyoda bir
 Lirday odam yashayotgani.

IKKI OTLIQNING SAYRGA CHIQISHI

Bir kun yong‘oqchaqar Qandchaqar ila
 Hasratlashib qoldi o‘choq boshida.
 – Zerikdim bu yerda men tamomila,
 Yur, o‘ynab kelamiz shahar tashida.

Havosiz, qorong‘i burchakda tanho
 Yotibmiz dimiqib, bosib qurum-chang.
 Ba‘zi yigit-qizlar, qilishib yallo,
 Ot minib kezishar, qachon qarasang.

Biz ham dukur-dukur yo‘llarning changin
 Ko‘tarib ketishga layoqatlimiz.
 Bizga kerak emas egar, uzangi,
 Shundog‘am minishbop oyoqlarimiz.



– Yur, – dedi Qandchaqar, – hamma gaping haq!
 Yorug‘ga chiqaylik, bu qanday sitam?
 Dong qolsin shaharda bizni ko‘rib xalq,
 – Bo‘lmasam-chi! – dedi yong‘oqchaqar ham.

Shundan so‘ng javonda tartibni buzib
 Tirqishdan chiqishdi ikkala qochoq.
 Eng chopqir ikki ot tizginin uzib,
 Taqirlab jo‘nashdi bir zum o‘tmayoq.

Cho‘chib tushgan mushuk sapchidi yonga,
 Ketidan otildi zanjirli ko‘ppak.
 Biqingan sichqon der boshqa sichqonga:
 – Otxonadan otlar qilindi g‘ippak!

Qoshiqlar javonda boshladi taq-tuq,
 Pichoq shig‘illadi bo‘lib hang-u mang.
 To‘nkarilib qoldi qo‘rqqandan tuzluq,
 Kosalar: – Ushlang! – deb ko‘tardi jarang.

«Qanday ketishyapti ikki dovyurak,
 Ortidan ko‘ray», – deb otildi finjon.
 Uzun hushtak chaldi ketidan choynak,
 Eshikda to‘qnashdi tova-yu qanddon.

Katta yo‘lda esa dadil, xotirjam,
 Ikki otliq ketar taqira-tuqur.
 Yong‘oqchaqar borar oq otda ildam,
 Qora otda esa Qandchaqar yovqur.

Ortda qoldi maydon, ortda qoldi bog‘,
 Olistlab ketishdi ko‘tarib to‘zon.
 Bir qur qichqirishdi g‘oyib bo‘lar chog‘:
 – Alvido! Qaytmaymiz endi hech qachon!



Sho‘x edi ovozi yong‘oqchaqarning,
 Qandchaqarning tovshi tiniq va yangroq.
 Oxirgi salomi uchib ularning
 Quloqlarda turdi, tebranib uzoq.

O‘RDAK VA KENGURU

O‘rdak g‘a-g‘aladi: – Do‘stim Kenguru!
 Sen juda kuchlisan, juda ham epchil!
 Chopasan, charchatmas seni yuguruv,
 Havо xohi issiq, xoh bo‘lsin namchil.

Men esa zerikdim balchiq hovuzda,
 Baqalar, shilliqlar jonimga tegdi.
 Dunyo ko‘rmasmanmi, kirsam ham yuzga?
 Kenguru, meni ham ola ket endi.

Yo‘lda seni notinch qilmasman aslo,
 Olg‘a bos, desang gar, bosarman olg‘a.
 Jim, desang, jimarman... Qo‘rqib ketsam goh
 Faqat bir-ikki bor deyarman «g‘a-g‘a».

Qirg‘oqqa guvillab urilgan dengiz,
 Erkin chag‘alaylar raqsini ko‘ray.
 Jon Kenguru, meni qoldirma yolg‘iz,
 Quvonchli kunlarning bag‘rida yayray!

– Mayli, o‘ylab ko‘ray, – dedi Kenguru, –
 Noxush kun kechirmoq chindan ham og‘ir –
 Yonma-yon aylanib yurish emas bu...
 E‘tirozim bordir faqatgina bir:



Kechir, buni yodda tutmasam bo'lmaz,
 Afsus, oyoqlaring juda ham sovuq.
 Sen deb o'z uyimda bod bo'lsam noxos
 Buning hech yaxshilik alomati yo'q.

– E, qo'rqma, – deb O'rdak, g'a-g'alar kulib, –
 Sovuqqa yo'qliging bilib olganman,
 Oyog'imga qara, uch qavat qilib
 Parpaypoq, junpaypoq kiyib olganman.
 Shamolda kerak deb, oldindan bilib,
 Qo'sha yopinchoq ham sotib olganman.

– Mayli, bo'lg'in menga bir umr yo'ldosh,
 Qarasam, o'zing ham oydak ekansan!
 Lekin sen dumimga qo'yib yotgin bosh –
 Yo'lda muvozanat saqlashim oson...

Shunday qilib ikkov tushdilar yo'lga
 Tog'liqlar, iloniz so'qmoqlar bo'ylab.
 Parvo qilmadilar sarg'aygan cho'lga,
 O'rmon gilamlarin bosdilar kuylab
 O'rdak va Kenguru,
 O'rdak va Kenguru.

UZUNOYOQ CHIVIN BILAN QO'LI KALTA PASHSHA

I

Uzunoyoq Chivin oqsoqol
 Ajib bir yoz, peshin chog'ida,
 Kostyum kiyib kulrang, biroz ol
 Tentirardi soy qirg'og'ida.



Qarshisidan g'ing'illab shu choq
 Chiqib qoldi janobi Zum-zum,
 Egnida bir yo'l-yo'l, yaltiroq,
 Bayramona bashang zo'r kostyum.

Jarang-jurung tushki ovqatga
 Chorlaguncha shahar soati
 Ikkovlari shirin suhbatga
 Berildilar, kelib fursati.

So'ngra qumloq uzra ikkovlon
 Javlon urib o'ynashdi chavgon.

II

Chivin so'rar do'stidan axir
 Alang-jalang qarab atrofga:
 – Nima uchun hech qachon, taqsir,
 Yo'l solmaysiz saroy tarafga?

Libosingiz ketvorgan, toza,
 Xuddi oyna kabi yaltiroq.
 Saroy xursand bo'lardi rosa
 Sizni bashang ko'rganda har choq.

Marmarlar-u billurlar aro
 Qirolni ham bir ko'rardingiz,
 Taxtda yana naq guli ra'no
 Malikadan hol so'rardingiz.

Oltin tusli taxt uzra ular
 Qizil va ko'k ko'y lakda bo'lar.



III

– Yo‘q! – deb javob qaytardi Zum-zum, –
 Borolmayman hech vaqt u yoqqa!
 Sizga rostin qilayin ma‘lum:
 Asli mening qo‘llarim qisqa!

Mening egnim bashang bo‘lsa ham
 Qo‘lim qisqa – orim keladi...
 Saroydagi har qaysi odam
 Qo‘llarimga qarab kuladi.

Shunday borsam yoqmas unchalik,
 Juda xunuk ko‘rinar turqim.
 Qirol bilan qirolichaning
 Qattiq qahri kelishi mumkin.

Qichqirishi hech gapmas qirol:
 «Yo‘qol, Pashsha, bu yerdan darhol!»

IV

Ma‘yus tortib janobi Zum-zum:
 – Do‘stim! – deya qildi iltijo, –
 Qo‘ying, kuylang, yaxshisi bir zum,
 Ko‘nglingizga kelsa qay navo.

Men bilaman, bir paytlar sizni
 Tinglab ko‘zyosh to‘kardi cho‘rton.
 Qisqichbaqa qo‘shig‘ingizni
 Tinglab, raqsga tushardi shodon.



Yer yuzida bironta siymo
 Siz aytganday qo‘shiq aytarmi?
 Qo‘shiq aytmay qo‘ydingiz ammo,
 Buning biron sababi bormi?

Yaxshi suhbat qurdik biz bugun,
 Endi kuylab bering men uchun!

V

– Do‘stim, – deya Chivin qaytardi javob, –
 Sizdan yashirgulik sirim yo‘q,
 Bir dard menga beradi azob,
 Ko‘kraginga qadalganday o‘q.

Uzun oyoqlarim tufayli, o‘rtoq,
 Kuylolmayman ko‘p yildan buyon.
 Bukma tayoq kabi bu olti oyoq
 Menga uyqu bermas hech qachon.

U yonim uch oyoq, bu yonim uch oyoq –
 O‘syapganga o‘xshaydi jo‘shib.
 Bular oyoq emas, naq qo‘ltiqtayoq –
 Shuning uchun aytmayman qo‘shiq.

Zum-zum janoblari, muhtaram taqdir,
 Kuylash menga yarashmas hech bir!

VI

Janob Uzunoyoq janob Zum-zumga
 Yozilgach, kettidilar, o‘ylari tarqoq.
 O‘tirdilar yonma-yon qumga,
 Dengiz shovqiniga soldilar quloq.



Xayollarga choʻmdilar mahzun:
 Evoh, hayot ajoyib nusxa –
 Birovlarning oyogʻi uzun,
 Birovlarning qoʻllari qisqa.

Qoʻli qisqa, chatoqligidan
 Biri borolmaydi saroyga,
 Biri uzun oyoqligidan
 Qoʻshiq aytolmaydi, berilib kuyga.

Har yon ayqash-uyqash batamom,
 Dunyoda yoʻq tartib, intizom.

VII

Janob Uzunoyoq Chivin va
 Janob Zum-zum ikkov bir mahal
 Oyoqlarni oldilar qoʻlga,
 Dengiz yoqqa chopib tavakkal.

Bir chetdagi eski yelkanga
 Ucha-ucha borib yetdilar.
 Minib olib ana oʻshanga
 Toʻlqinlarni yorib ketdilar.

Grombulon degan qirgʻoqqa
 Suzib yetib bordilar omon.
 Maza qilib oltin qumloqda
 Oʻynadilar horguncha chavgon.

Soʻng: «Keldi, – deb, – tushlik muhlati»,
 Jarangladi shahar soati.



OYOQLARI BARMOQSIZ POBBL

Hammaday, Pobblda bor edi oyoq,
Barmoqsiz edi-da oyog‘i biroq.

Ilgarilar bor edi barmoq,
«Barmoqlarni ehtiyot qil!» deb
Kimki unga so‘ylasa saboq,
Nigohlarin o‘shanga qadab:
«Bo‘lmagan gap!» der edi har choq.

Nam havoda Jobika xola:
– Menga qara, – derdi, – hoy bola!
Manov xina suvin albatta
Oyoqqa sur, nafi bor katta.
Pobbl «xo‘p!» deb surardi uni,
Yalangoyoq o‘ynab har kuni.

Oyoqlari barmoqsiz Pobbl
Sal o‘sdi-yu apil va tapil
Xolasining durrachasini
Bog‘lab burniga,
Chopib bordi Bristol degan
Katta amaga,
Shartta o‘zin suvga tashladi,

Qarshi yoqqa suza boshladi.
Aytgan edi Jobika xola:
Oyoqlarga suvdan yo‘q ziyon,
Og‘iz-burnin saqlagan bola
Barmog‘in ham asragay omon.

Suvda Pobbl ehtiyot qildi
Burnidagi durra-bog‘chasin.



Yo'lda kema uchrasa, chaldi
Ola kelgan qo'ng'iroqchasin.

Ko'ringanda Pobl qorasi
Hoy-hoyladi kema darg'asi:
– Baliq tutar anavi bola!
Pishiradi Jobika xola!

Suzib o'tib Pobl arnani,
Olay degan chog'i marrani,
Bog'ichini qandaydir delfin
Ilib ketdi burnidan sekin.

Pobl shunda oyoqlariga
Xavotir-la berdi e'tibor:
Hozirgina oyoqlarida
Barmoqlari turgandi qator,
Qani ular? Bironyasi yo'q –
Faqat o'rni og'rirdi lo'q-lo'q...
Barmoqlarin qay nomard xumsa
Tez-u tekis uzmish bemalol –
Bilolmadi biron bir kimsa,
Bilolmas ham hech vaqt, ehtimol.

Pobl barmoqlarin yeb to'ygan
Xanjar tishli akulamikin?
Suv parimi – dengizda yurgan,
Qisqichbaqa yo voblamikin?

Oyoqlari barmoqsiz Pobl
Yotqizildi asta yelkanga
(Yurolmasdi endi u, axir!)
So'ng opichib olib yelkaga



Uyga olib kelindi oxir...
Kutib oldi Jobika xola
Va qichqirdi:»Voy, sho‘rlik bola!»

Xola ammo sevindi qattiq
Pobbl o‘lmay keldi, deb, omon,
Dekchasida qovurib baliq
Jiyaniga yozdi dasturxon.

Bristolning arnasoyidan,
Baliq qaynab turgan joyidan,
Tutgan edi sakkizin Pobbl,
Oyoqlari Barmoqsiz Pobbl.

Pobblga der Jobika xola:
– Barmoqsiz qolganing yaxshimas, biroq
Ancha durustmasmi – o‘zing bir o‘yla! –
Oyoqsiz barmoqdan barmoqsiz oyoq?!



ROBERT STIVENSON


Robert Lyuis Stivenson ingliz bolalarining sevimli yozuvchisi va shoiridir. U o'z nasriy asarlarida romantik yo'nalishda Angliyaning turmush tarzini va insonlarining xarakterlarini ochib berishga intildi. «Xazinalar oroli» (1883), «O'g'irlangan odam» (1886), «Qora o'q» (1888), «Katriona» (1893) va boshqa bir qator romanlari bilan sarguzasht syujet ustasi sifatida tanildi.



Stivensonning «Bolalarning she'riy gulzori» (1885) nomli she'r to'plamida ham, romanlaridagi kabi, romantik shon-sharaf-larga o'ralgan insonlar timsollari yaratilgan. To'plamdagi kichik qahramonlar olami nurli va quvonchlidir. Ularning kunlari sevinchli o'yinlar va vaqtichog'liklar ichida o'tadi, oqshomlari shirin orzu-xayollar og'ushida, tunlari ajoyib-g'aroyib tushlar bilan chulg'angan bo'ladi.

Stivensonning she'rlari benihoya musiqiy, tiniq bo'lib, borliq dunyoni ko'zga ko'rinadigan shirin xayollar va tovushlar olamida jonlantiradi. Daryolarning shovullashlari, yomg'irlarning shitir-shitiri, dengiz to'lqinlarining sirli sadolari tabiiy ravishda yosh kitobxon xayoliga o'rmashib qoladi.

Stivensonning «Supurgio't asali» (1875) balladasida xalq rivo-yatlaridagi kuchli, dovyurak qahramonlar, oddiy insonlarning timsollari, ularning vatan taraqqiyoti uchun bemalol va mag'rur

 jasorat ko'rsatishlari, misralarning tantanali vazni bilan o'quvchida jasurlikka ishtiyog uyg'otadi.

Stivensonning she'riyati xalq og'zaki ijodi an'analariga uyg'unligi bilan ajralib turadi.

Ballada

SUPURGIO'T ASALI

Supurgio't sharbati
Ko'rinmas ko'pdan buyoq.
O'tkir edi boldan ham,
Kayfi sharobdan zo'rroq.

Uni g'orda bolchilar
Pishirardi qozonda.
Bor oila bir bo'lib
Ichardi shom, azonda.

Yovga rahm-shafqatsiz
Shotland qiroli keldi.
Sho'rlik piktlar serqoya
Qirg'oqlarga quvildi.

Supurgio't shudgori
Bo'ldi urush maydoni
O'lik-tirik qorishib
Tutday to'kilgan oni...

Mamlakatga yoz keldi
Supurgio't gulladi.
Ammo bol tayyorlovchi
Odamlar topilmadi.



O'z ona tuprog'ida
Tog'larda va o'rlarda,
Bol qiluvchi ustalar
Yotardi tor go'rlarda.

Qirol dengiz yoqalab
Ot choptirib ov ovlar,
Chag'alaylar yonma-yon
Charx urardi baravar.

«Yana mening o'lkamda, –
Dedi xo'mrayib qirol, –
Supurgio't gullapti,
Ammo biz totmadik bol!»

Qirolning vassallari
Sog' qolgan bolchilardan,
Ikkisin bilishardi,
Eslab qolishdi birdan.

G'ordan chiqdi ko'zlarin
Yorug'dan qilib pana –
O'n besh yoshli bola-yu
Qari bukri pakana.

Keltirib tik qirg'oqqa
Obdan qildilar so'roq,
Asirlar ikkovi ham
Bir so'z aytmadi biroq.

O'tirar shotland qirol
Qimirlamay egarda,
Ikki kichkina odam
Tik turar edi yerda.



– Agarda aytishmasa
Qanday qilinishin bol,
Qiyanglar ikkovini! –
Deya hayqirdi qirol.
Ota-o‘g‘il indashmas,
Ustlarida qoyalar,
Supurgio‘t shovullar,
Suvda sakrar dolg‘alar.

Shu dam yangradi ovoz:
– Eshit hoy, shotland qirol!
Hamma ketsin, ikkimiz
Gaplashaylik bermalol!

Chollar o‘limdan qo‘rqar,
Yashayman xoinona...
Ochaman qutli sirni, –
Der qirolga pakana.

Chumchuq kabi chirqillab
Dedi aniq-tiniq chol:
– O‘g‘lim xalal bermasa
Sirni ochardim darhol.

O‘g‘lim o‘limdan qo‘rqmas,
Unga bir pul halokat.
Men uning ko‘z o‘ngida
Qilolmayman xiyonat.

Uni bog‘lab otinglar
Suvlarning o‘ramiga.
Bol qilishni o‘rgatay
Men shotlandlar qavmiga!...



O'g'ilni mahkam bog'lab
Pahlavon harbiy shotland,
Otdi ochiq dengizga
Qirg'oqdagi qoyadan.
Sachrab tindi to'lqinlar,
O'chdi so'nggi dodlar ham.
Unga aks-sado bo'lib
Jarda dedi chol bardam:

– Shotlandlar, rost aytgandim,
O'g'lim chidolmas hech bir,
Sobit turolmas devdim
Mo'yi chiqmagan o'smir.

Men gulxandan qo'rqmayman,
Ammo o'lgan mahalim
Men-la ketar qutli sir,
Supurgio't aselim!



REDYARD KIPLING



Redyard Kipling 1865-yilda Bombeyda dunyoga keldi. Lekin ota-onasi Londonlik edi. Otasi Jon Kipling 14 yoshidan amaliy san'atga ishqiboz bo'lib qolgan va badiiy san'at maktabini bitirib, Londonning markaziy bir tumanida amaliy va tasviriy san'at bilan shug'ullanib yurgan, keyinchalik chinni idishlar tayyorlab chiqaruvchi bir firmada ishlagan.

O'sha kezlarda 20 yoshli bir ruhoniylar tarbiyachisi bilan do'stlashib qolgan. Do'stining Alisa degan chiroyli va aqlli opasi bor bo'lib, Jon va Alisa bir-birlarini sevib qolishgan, oila qurganlar va uch haftadan keyin Buyuk Britaniyaning o'sha paytdagi mustamlakasi bo'lgan Hindistonga suzib ketganlar.

30-dekabrda bir o'g'il ko'rgan va ismini Redyard qo'yanlar. Jon va Alisaning ilk tanishgan joylaridagi, ilk uchrashuvlarining guvohi bo'lgan ko'lining nomi Redyard bo'lgan ekan.

Redyard 6 yoshga to'lganda ota-onasi uni qattiqroq usullarda tarbiyalash maqsadida Angliyaga yuborishgan va u Londonda kapitan Proys Eyjer xonadonida yashagan. Kapitan dengiz va dengizchilar haqida go'zal ertaklar aytib bergan. Kelgusida Kipling dengizchilar hayotidan go'zal asarlar yaratdi. Ammo tez orada kapitan vafot etdi va endi uning tarbiyasi kapitanning xotiniga qoldi. Xonim bilan Redyard til topisholmay qoladi. Xonim uni siqishtirar, ko'p azoblardi. U Hindistondagi bolalik muhitini sog'inardi. Keyinchalik Kipling o'z tarjimai holida shunday yozgan edi:



«Sen bolangning olti yoshgacha qanday hayot kechirganini aytib ber, qolgan hayotini o'zim aytib beraman».

Kipling bolaligida hayotning achchig'ini ham, chuchugini ham ko'p tottdi. Bu uning erta ulg'ayishiga sabab bo'ldi: u erksizlik bilan hech chiqisholmaydigan yigit bo'lib yetildi. U endi o'z asarlarida har doim mard, qo'rqmas odamlar timsolini yaratishga intilardi.

Redyard Kipling faqat shoir emas, katta nosir ham edi, ko'pdan-ko'p chiroyli qissa, hikoya va ertaklar yozib qoldirgan. Uning «Maugli», «Rikki-Tikki-Tavi» ertak-qissalari XX asrning 70-yillaridayoq o'zbek tiliga tarjima qilingan va nashr etilgan edi. Keyingi yillarda matbuotimizda yana uning «Yertepingan parvona», «Kitga bunaqa halqum qayoqdan kelgan?», «Karkidonga bunaqa teri qayoqdan kelgan?», «Tuyaga o'rkach qayoqdan kelgan?» kabi ertaklari chiqdi.

Kipling bolalarga bag'ishlangan she'rlarida, xoh she'r kichik yoshdagilar, xoh kattaroq yoshdagilar uchun bo'lsin, ularning aniq holatini mahorat bilan, goh kinoyali, goh yoqimli kulgi-tabassum bilan ifodalaydi. Poklik, ozodalik, mehnatsevarlik g'oyalarini ham xuddi shu yo'l bilan ilgari suradi.

Kipling haqida zamondoshlaridan biri: «Uning she'rlari badiiy jihatdan o'ta baland saviyada, lekin jo'nroqlari ham bor. Ammo nima bo'lganda ham zamondoshlari undan or qilmasdi. U bilan hamisha faxrlanar edilar», deb yozadi.

Kipling 1936-yil 18-yanvarda vafot etdi. U 1907-yilda Adabiyot bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi.

She'rlar

AGAR...

Boshin yo'qotganda yonda safdoshing,
 Sen agar turolsang sokin, xotirjam,
 Senga ishonmasa yaqin yo'ldoshing,
 O'zingga ishonching bo'lsa mustahkam,



Sen agar yasholsang sabr-la har on,
Yolg'on bilan javob qilmay yolg'onga,
Shum bo'lib hammaga bo'lmasang nishon,
O'zingni avliyo bilmasang agar, –

Tiziningda bo'lsa tuyg'u, muhabbat,
Ustingda bo'lmasa hukmfarmosi,
Seni buzolmasa omad yo ofat
(Aslida bularning bir xil bahosi!)

So'zlaringni burib agar bir ayyor
Hozirlab qo'yganda sen uchun qopqon,
Yutqizsang, qaytadan boshlashga tayyor
Bo'lolsang, boshlasang ishni shu zamon, –

Sen o'rganib qolgan hamma narsangni
O'rta qo'yishga gar bo'lsang qodir,
Hammasin yutqazib, qaytadan boshlab,
Boringni berolsang, olmay xavotir,

Yuraging, asabing, tomirlaringni
Ko'nikтира olsang yurish-chun olg'a,
Yillar o'tib kuchlar zaiflashganda,
Irodang: «O'zingni tut!» deya olsa, –

O'zingni tanisang el ichra har vaqt,
Qirol oldida ham tursang el bilan,
Har qanday fikrni qilolsang hurmat,
Haq uchun turolsang tikka bel bilan,

Bilmoqchi bo'lganda masofalarni
Farqlay olsang hatto bir soniyani, –
Demak, yer seniki, bilib qo'y, o'g'lim,
Demak, sen chinakam insonsan ya'ni.



OTLIQ VA OT HAQIDA

Qamchi, uzangi-la niqtama otni,
Bahslashmay ketaver yo'llarda sekin.
Chunki vaqti kelib kunlardan bir kun,
Qamchining achchig'i, jag'dagi temir,
Po'lat uzangining halqachalari,
Tizginlar – jonidan o'tishi mumkin...

AMAZONKADA

Olis Amazonkada
Bo'lmaganman hech qachon.
Faqat «Don», «Magdalena» –
Tez suzuvchi kemalar –
Faqat «Don», «Magdalena»
U yon borib-kelarlar.

Har payshanba kunlari
Liverpul gavanidan,
Olis qirg'oqlar sari
Kemalar ketar ildam.

Suzib ketishar ular
Braziliya yurtiga,
Braziliya yurtiga.
Olis qirg'oqlar sari
O'sha Braziliyaga
Borgim keladi men ham,
Borgim keladi men ham!

Usti zirhli toshbaqa,
Uzunchoq dumli qoplon



Shimol o'rmonimizda
 Uchramaydi hech qachon.
 Suyuk Braziliyada
 Issiq Braziliyada
 To'lib-toshib yotarkan
 Ko'plab antiqa hayvon!

O'shal Braziliyani,
 Go'zal Braziliyani
 Mayli, bo'lsa-da qachon,
 Bir kuni ko'rarmanmi?
 O'shal Braziliyani
 Axiyri qarib-churib
 Yo ko'rmay o'larmanmi?

MENING OLTI XIZMATCHIM

Mening olti xizmatchim bor
 Epchil, dovyurak.
 Atrofda ne bo'lsa, darhol
 Berishar darak.

Imo qilsam agar biron,
 Kelishar zumda.
 Nomi: Qanday, Nega, Qachon,
 Kim, Nima, Qayda.
 Quvgum o'rmon-dengizlarga
 Zerikkan kezim,
 Ish yo'q bugun, – deb, – sizlarga,
 Ishlayman o'zim.

Bir kungina beg'am yurib,
 Balqishsin ular.
 Chanqov bossin, ko'p ovqat yeb –
 Ochko'z xalq ular.



Lekin do'stim kichik ancha –
 Jajji qizaloq.
 Xizmatchisi yuz mingtacha,
 Tinchitmas biroq!

Besh ming Nega, o'n ming Qanday,
 Yuz mingta Qayda
 Barin quvib solar itday
 Duch kelgan joyda!


MUSHUK O'T YONIDA

Mushuk o't yonida miyovlar go'zal,
 Daraxtga chiqadi epcillik bilan.
 Ba'zan chopib mendan oldinga o'zar,
 Titib tashlar ipli g'altakni ba'zan.

Mo'min-qobil lekin sodiq kuchukcham,
 Dardimning darmoni ham chorasi u.
 Ko'p sinovdan o'tgan do'stimdir ixcham,
 Zotli g'or ko'ppagin chevarasi u.

Yo'ldan o'tib ketgan vahshiy hayvonlar
 Izlarin keyincha bilmoq uchun siz,
 Suv krandan ozroq suv olib agar
 Mushuk oyoqlarin ho'llab qo'ysangiz,

U sizni timdalab, uvlab, zipillab,
 Qo'lingizdan chiqib, qochib ketadi.
 Itim unday emas, sinalgan yillab,
 Do'stlikning qadriga yetadi.





Mushuk shomda mayin, mehribonlik bilan
 Suykaladi sizning oyog'ingizga.
 Yotsangiz, lip etib chaqqonlik bilan
 Ketar boshqa yoqqa uchgancha g'izza.

So'ng butun tun bo'yi qaytmaydi mushuk,
 Bilmaysiz qaylarda yurganin uning.
 Xurрак otib uxlar uyimda kuchuk
 Demak, u haqiqiy do'stimdir mening.

KICKINA MAYMUNCHA

Men – kichkina maymunchaman,
 Ongliman ancha.
 Yur, qochamiz dalalarga
 Ko'chama-ko'cha.

Bir arava mehmon keldi,
 Oyim bersin choy.
 Menga dedi: – O'ynagani
 Top boshqa bir joy!

Yur, qo'raga boramiz-da,
 Shox-shabba osha
 Qo'ylar bilan gaplashamiz,
 Qilib tomosha.

Yur, dadajon, yura qolgin
 Dalaga, qirga,
 Yurib-yurib tunda uyga
 Qaytamiz birga.



Mana etik, mana qalpoq,
 Chilim, tamaki.
 Dada, tez yur, sezmay qolsin
 Mehmon amaki!

Ertaklar

YER TEPINGAN PARVONA

Mana senga, o'g'iljonim, yangi bir ajoyib ertak, boshqa ertaklarga hech o'xshamaydigan antiqasi: o'zi donishmand podsho Sulaymon ibn Dovud haqida. Dunyoda Sulaymon ibn Dovud haqida 350 ta ertak bor, ammo bunisi ularning ichida yo'q. Bu ertak aslida yer tepingan parvona haqida. Endi ertakni boshlayman – diqqat bilan quloq sol!

Sulaymon ibn Dovud – dono kishi edi. Hayvonlar nima deganini, qushlar, qurt-qumursqalar nima deganini tushunardi. U hatto tuproqning tagida, chuqur-chuqur joylarda toshlar, bir-birini bosib, ezib yuborganda va toshlar ingraganda nima deganini ham tushunardi. U yana tong otarda daraxtlar barglarni shildiratib nima deganini ham tushunardi. U, arini ham, bo'rini ham, chechakni ham, pechakni ham – hammasini tushunardi. Podsho xotin Bilqis – uning birinchi va bosh xotini – xalq tilida «Malika Bilqis» ham o'zi kabi aqlli va dono edi.

Sulaymon ibn Dovud qudratli edi. O'ng qo'lining o'rta barmog'ida oltin uzugi bor edi. Shu uzugini bir aylantirib qo'ysa bormi, yerning tagidan ifridlar va jinlar uchib chiqishardi va uning buyurganlarini bitta qo'ymay ado etishardi. Agar u uzugini ikki marta aylantirsa, osmondan parilar tushar, ular ham Sulaymonning buyruqlarini bitta qo'ymay ado etishardi. U, uzugini uch marta aylantirganda, oldida qo'lda qilichi bilan naqd azroilning o'zi meshkopchi(suvchi) kiyimida paydo bo'lardi va yer yuzida, ko'kda va yer ostida nimalar bo'layotgani to'g'risida hamma voqealarni aytib berardi.



Shunga qaramay Sulaymon ibn Dovud juda kamtar kishi edi. U deyarli hech qachon maqtanmasdi, bordi-yu bexos maqtanib qolsa keyin bunga achinib, kuyunib yurardi.

Bir kuni u dunyoda mavjud bo'lgan hamma hayvonlarni bir kunning o'zida mehmon qilmoqchi bo'lganini jar soldi, ammo u yemakni hozirlaganda dengizning tagidan allaqanday bir katta Alphayvon suzib chiqdi va hamma ovqatni uch yutishda tamom qildi. Sulaymon ibn Dovud hayron bo'lib og'zi ochilib qoldi va:

– Ey, Alphayvon, sen kim bo'lasan? – dedi.

Alphayvon shunday deb javob berdi:

– Zamon-zamon, uzoq zamonlar omon bo'lishingizni tilayman, ey hukmdor. O'ttiz ming akalarim ichida kenjasi menman. Biz dengizning tubida yashaymiz. Siz dunyoda qancha hayvon bo'lsa, ularning hammasini to'yg'azmoqchi bo'lganingizni eshitdik, shunda akalarim, borib bilib kel-chi, qachon ovqat tayyor bo'larkin, deb meni huzuringizga yuborishdi.

Sulaymon ibn Dovud yomon ajablendi va:

– Ey, Alphayvon, dunyoda mavjud bo'lgan barcha hayvonlar uchun hozirlagan yemagimni, sen bir o'zing yeb qo'yding, – dedi.

Alphayvon unga qarab:

– Ey, hukmdor, zamon-zamon, uzoq zamonlar omon bo'lishingizni tilayman! Ammo shu ham yemak bo'ldimi? Men kelgan tomonda tushlik bilan kechiki ovqat oralig'ida bir tamaddi qilib olish uchun har birimizga bundan ikki baravar ko'p ovqat berishadi, – deb javob qaytardi.

Shunda Sulaymon ibn Dovud, yer o'pib:

– Ey, Alphayvon, men bu ovqatni hayvonlarni chindan ham yaxshi ko'rganim uchun emas, Olloh roziligi uchun emas, o'zim qanday ulug' va boy podshoh ekanligimni hammaga ko'rsatib qo'yish uchun tayyorlatgan edim, – deb xitob qildi. – Ana endi yuzim qaro bo'ldi va bu hodisa o'la-o'lgunimcha menga saboq bo'lib qolajak!



Sulaymon ibn Dovud aslida donishmand kishi edi, o'g'iljonim, shu hodisadan keyin u maqtanish yomon ekanligini hech qachon unutgani yo'q. Mana endi haqiqiy ertak boshlanadi.

Sulaymon ibn Dovudning xotini ko'p edi. Go'zal Bilqisni hisobga olmaganda. 999 ta xotini bor edi. Ularning hammasi favvorali xushmanzara bog'ning o'rtasida qad ko'targan kattakon oltin qasrda yashardi.

Aslida Sulaymon ibn Dovudga 999 ta xotinni keragi yo'q edi, ammo u zamonlarda har bir kishining ko'plab xotini bo'lardi. Podsho esa o'zining podsholigini ko'rsatish uchun, albatta hammadan ko'proq xotin olishi kerak edi.

Ularning birlari chiroyli, birlari xunuk edi. Xunuklar chiroylilarni ko'rolmasdilar. Ichlari kuyib battar xunuklashib ketardilar. Shu tufayli ularning hammalari Sulaymon ibn Dovud bilan urushib-arazlashib qolishar va unga ko'pdan-ko'p ozor berishardi. Faqat go'zal Bilqisgina Sulaymon ibn Dovud bilan hech urushmas, uni haddan tashqari yaxshi ko'radi. Bilqis yo o'zining oltin xonasida o'tirar va yo oltin qasrli bog'da o'ynab, aylanib yurardi, u Sulaymon ibn Dovudning holini ko'rib, unga joni achishardi.

Albatta, Sulaymon ibn Dovud agar xohlasa barmog'idagi uzugini aylantirib, jinlar va ifridlarni chaqirishi va ular 999 xotinning hammasini oq urg'ochi eshakka yo tozi itga va yo anorning doniga aylantirib qo'yishlari mumkin edi. Ammo Sulaymon ibn Dovud yana maqtanchoq bo'lib qolishdan qo'rqardi. Shuning uchun janjalkash xotinlari shovqinlab urushsalar, qasrli bog'ning chekka bir burchagiga bekinib olar va negayam bu dunyoga keldim, deb o'zining tug'ilgan onlarini la'natlab o'tirardi.

Bir kuni xotinlari bir emas, ikki emas, uch hafta tinmay urishishdi. Sulaymon ibn Dovud 999 xotinning shovqin-suronidan qochib, o'sha o'zining xoli go'shasiga yashirindi. Po'rtaxol daraxtlarning orasida go'zal Bilqisni uchratdi.

– Ey, ko'zlarimning oq-u qorasi, sevikli shohim, – dedi u, – barmog'ingizdagi uzukni aylantirib, qanday buyuk va haybatli



hukmdor ekanligingizni shu misrlik, mesopodatamiyalik, xitoylik va fors malikalariningizga ko'rsatib qo'ysangiz bo'lmaydimi?

Ammo Sulaymon ibn Dovud boshini chayqadi va:

– Ey, malikam, hayotimning quvonchi, – dedi unga javoban, – dengizning tubidan suzib chiqqan Alphayvon esingdami, bir martagina maqtanmoqchi bo'lganimda, dunyodagi hamma hayvonlarning oldida meni sharmanda qilgan edi. Shu bois arab, habash, xitoy va misr malikalarining ming'ir-ming'irlari tufayli ularga hunarimni ko'rsatib maqtanadigan bo'lsam, undan ham beshbattar sharmanda-sharmisor bo'lishim mumkin.

– O, qalbinning xazinasi, sevikli shohim, unda bu ahvoldan qanday qutulasiz? – dedi go'zal Bilqis.

– O, qalbinning shirasi, sevikli malikam, nima bo'lsa bo'lar, men taqdirimni tinimsiz janjallar bilan toqatimni toq qiluvchi ana shu 999 malikaning qo'liga topshirganman, – dedi Sulaymon ibn Dovud.

Shundan so'ng bog'da o'sib yotgan, nilufarlar, yapon lokvalari yonidan o'tib, shoyigullar va xushbo'y zanjabillarni ham yoqalab ketib, «Sulaymon ibn Dovudning Kofur daraxti» deb nom olgan katta daraxtning tagiga keldi. Ammo Bilqis baland bo'yli gulsafsarlar orasiga yashirindi, bundan kuzatgan maqsadi sevimli yori Sulaymon ibn Dovudga yaqinroqda bo'lish edi. Xuddi shu daraxt tagidan ikki kapalak (bittasi parvona) o'tib qoldi.

Sulaymon ibn Dovud, Parvona Kapalakka dakki berayotganini eshitib qoldi.

– Menga qo'pol va qo'rs gapirishga qanday hadding sig'di, axir bilmaysanmi, achchiqlanib yerni bir tepsam momaqaldiraq qaldirab, Sulaymon ibn Dovudning saroyi va bu bog'lar ostin-ustun bo'lib ketadi, – der edi Parvona Kapalakka.

Bu gapni eshitgan Sulaymon ibn Dovud 999 xotining urush-janjallarini ham unutib, xaxolab kulib yubordi. U Parvonaning maqtanchoqligidan kula-kula ichagi uzildi. Shu qadar uzoq xaxoladiki, hatto Kofur daraxti ham bu sadolardan zirillab ketdi.



– Hoy kichik odamcha, bu yoqqa kel! – dedi u va ko‘rsatkich barmog‘ini cho‘zib imladi.

Parvona qattiq qo‘rqib ketdi. Ammo nima ham qilardi, noiloj Sulaymon ibn Dovudning oldiga uchib keldi va qanotchalarini qaltiragancha uzatgan barmog‘iga qo‘ndi. Sulaymon ibn Dovud boshini biroz egib Parvonadan pichirlab so‘radi:

– Hey, mitti odamcha, sen har qancha yer tepinmagin, hatto kichik bir maysa ham joyidan siljimasligini yaxshi bilasan-ku! Nega hech uyalmay xotiningga yolg‘on gapiryapsan? Axir u sening xotining, to‘g‘rimi?

Parvona Sulaymon ibn Dovud qaradi, va shohning sovuq tundagi yulduzlardek miltirab turgan dono ko‘zlarini ko‘rdi. So‘ngra qanotlarining pirillashini to‘xtatib, boshini egdi va bor-yo‘q jur‘atini ishga solib:

– Ha, chindan ham u mening xotinim, xotinlarimiz qanaqaligini o‘zingiz yaxshi bilasiz, – dedi. Sulaymon ibn Dovud miyig‘ida kulib qo‘ydi.

– Ha, birodar, buni juda yaxshi bilaman, – deb javob qaytardi.

– Ularni o‘zimizga itoat qildirishimiz kerak-ku, – dedi Parvona. – Xotinim esa men bilan ertalabdan beri urishayapti, oxiri men unga dag‘dag‘a qilib, so‘kinishga majbur bo‘ldim.

Sulaymon ibn Dovud:

– Balki shunday qilish to‘g‘ridir,– deb qo‘ydi, – chindan ham bu – ularni tinchlantirsa ajab emas... Birodar, bor, xotiningni oldiga, men nima deganingni eshitaman.

Parvona xotiningni oldiga qaytib bordi. U bir yaproqning tagida o‘tirar va qo‘rqqanidan qalt-qalt qaltirardi. Arang hayajonini bosib:

– U menga aytgan gapingni eshitibdimi? Sendan so‘rayapman, Sulaymon ibn Dovud nima deganingni eshitibdimi? – deb so‘radi.

– Eshitibdi,– dedi Parvona,– men o‘zim eshitishini xohlagandim.

– Nima dedi? Hoy, senga, nima dedi, deyapman?



– Ha, nimayam derdi, – dedi Parvona va gerdayib qanotchalarini silkitib qo‘ydi. – Gap o‘rtamizda qolsin, azizim (albatta, unda ayb yo‘q, chunki qasr unga juda qimmatga tushgan, buning ustiga ayni po‘rtaxollar pishib turgan payt bo‘lsa), xullas u mendan yer tepinma deb iltimos qildi, xo‘p, yer tepinmayman deb va‘da berdim.

– Voy, Xudoyim-ey, – deb xitob qildi Parvonaning xotini va nafasini ichiga yutdi. Sulaymon ibn Dovud esa ayyor Parvonaning bezbetligidan ko‘zlari yoshlanguncha xaxolab kuldi.

Go‘zal Bilqis daraxt tagida qizil nilufarlar orasida biqingancha jilmayib turardi. Chunki u ham, bo‘lgan gaplarning hammasini eshitgandi. Shu payt uning xayoliga: «Agar mening donoligim rost bo‘lsa, sevikli egamni joniga tekkan malikalarning ming‘ir-ming‘irlaridan qutqarishim kerak», degan fikr keldi. So‘ng barmog‘ini cho‘zib Parvonaning xotiniga sekingina:

– Bu yoqqa kel, hoy, mitti xotincha! – deb pichirladi.

Kapalak qattiq qo‘rqib ketdi, ammo nima ham qila olardi, uchib kelib Bilqisning oppoq qo‘liga qo‘ndi.

Bilqis chiroyli boshini engashtirib pichirladi:

– Menga qara, mitti xotincha, sen eringning gaplariga chippachindan ishonib o‘tiribsanmi?

Kapalak Bilqisga qaradi va go‘zal malikaning ko‘zlari oydin tunda yiltirab turgan ko‘lday yiltirayotganini ko‘rdi. Kapalak qanotlarini pirillatishni to‘xtatdi va bor- yo‘q jur‘atini ishga solib:

– O malikam, toabad chiroyingiz so‘nmasin, siz axir erlar qanaqa bo‘lishini bilasiz-ku! – dedi. Shunda malika Bilqis tabasumini ko‘rsatmaslik uchun qo‘li bilan og‘zini berkitdi:

– Ha, singiljonim, bilaman, – dedi.

– Arzimagan narsaga ham jahli chiqaveradi ularning, – dedi Kapalak tez-tez qanot qoqib va juftlab. – O, malika, shuning uchun ham biz ularning dimog‘-firog‘ini ko‘tarib, xushomad qilib, ko‘nglini olishimiz kerak. Ular aytayotgan gaplarining hatto yarmini ham hech o‘ylashmaydi. Modomiki erim yerni bir tepsa Sulaymon ibn Dovudning qasri yo‘q bo‘lib ketishiga ishonishimni



xohlayotgan ekan, mayli, meni ishondi deb o'ylay qolsin, nima qilaman uning gapiga e'tiroz bildirib? Baribir, ertaga u o'z gapini unutib yuboradi.

– Ha, to'g'ri aytasan, singiljonim, – dedi Bilqis. – Ammo yana shunday deb maqtanib qolsa, aytgan so'ziga mahkam yopishib ol, hoziroq yerni tep, deb turib ol va bundan nima chiqishini ko'r, o'zining sharmandasi chiqadi, ko'rasan.

Kapalak o'z Parvonasining oldiga uchib ketdi. Oradan besh daqiqa o'tar-o'tmas o'rtalarida avvalgisidan ham qattiqroq janjal chiqdi.

– Nima, unutdingmi, – dedi Parvona, – yer tipinsam nima bo'lishini aytgandim-ku, unutdingmi?

– Men senga tirnoqchayam ishonmayman, – deb javob qaytardi Kapalak. – Qani qo'lingdan kelganini qil-chi, men bir tomosha qilay! Tep! Tep! Bo'laqol, tep!

– Sulaymon ibn Dovudga tepinmayman deb va'da bergan edim, va'damni buzishga uyalaman.

– E, bo'lmagan gap! Qancha yer tepinma, hech nima bo'lmaydi. Hatto qittay maysa ham qilt etmaydi. Qani, nega yer tepinmayapsan? Tep, tep. Senga aytayapman tepaqol.

Kofur daraxtining tagida o'tirgan Sulaymon ibn Dovud bu so'zlarning har birini eshitdi va maza qilib kuldi. Umrida hech bunday maza qilib kulmagan edi. U malikalarni ham, dengizning tubidan suzib chiqqan Alphayvonni ham, bir paytlari maqtanib uyatga qolganini ham unutdi. Daraxt tagida turgan Bilqis ham kulardi, chunki sevgilisi xursand edi.

Mana endi, g'ashlangan, hayajonlangan Parvona Kofur daraxtining tagiga uchib bordi. Sulaymon ibn Dovudga uchradi:

– Xotinim yer tepinishimni xohlayapti, – dedi u. – Bundan nima chiqishini ko'rgisi kelyapti, o shahanshoxim Sulaymon ibn Dovud! Bundan hech nima chiqmasligini siz ham yaxshi bilasiz-ku! Endi u bironta so'zimga ham ishonmaydi. Umrinning oxirigacha ustimdan kuladi!



– Yo‘q, ukajonim, – dedi Sulaymon ibn Dovud, – Hech qachon bunday bo‘lmaydi, menga ishonaver!

Shunday dedi-yu barmog‘idagi uzugini bitta aylantirdi (u bu safar o‘zining qudratini ko‘z-ko‘z qilish uchun emas, Parvonaga yordam berish uchun shunday qildi). Bir lahzada yerning tagidan katta-katta ikki juft jin chiqib keldi.

– Ey qullarim! – dedi Sulaymon ibn Dovud. – Mening barmog‘imda turgan manavi Hazrat (barmoqda maqtanchoq Parvona turardi) chap oyog‘i bilan yerni bir tepadi, shunda sizlar jala yog‘diring, osmonda momaqaldiroq gumburlasin, keyin manavi qasr va bog‘larning bari ko‘zdan yo‘qolsin, butunlay g‘oyib bo‘lsin. U ikkinchi marta yer tepinganda, hammasini sekingina joy-joyiga qo‘yinglar!

– Endi ukajonim, dedi u Parvonaga, – xotiningni oldiga jo‘na, maza qilib yerni tepaver.

Parvona xotiningni oldiga uchib bordi, xotini hamon:

– Nega tepinmayapsan, tepin! Qani bo‘l, tep! Tep! – der edi.

Qasrni o‘rab turgan chetan ortida Bilqis to‘rt jinni ko‘rdi va o‘zicha: «Mana oxiri Sulaymon ibn Dovud Parvonani qutqarish uchun, shu bahonada o‘zini ham qutqarish uchun, ilgari o‘zi uchun qilmagan, allaqachon qilishi lozim bo‘lgan ishni endi qiladigan, anavi ming‘ir-ming‘ir xotinlarini tinchitib bosib qo‘yadigan bo‘libdi!» – deb qo‘ydi.

Parvona bir tepindi, jinlar qasrni va bog‘larni shart ko‘tarib osmonga, ming-ming chaqirim nariga olib ketishdi. Oldin dahshatli momaqaldiroq gumburladi, keyin osmon qora siyohdan ham qoraroq bo‘lib ketdi. Kapalak esa, qop-qorong‘i zulmat qo‘ynida uchib yurar:

– Voy-dod! Boshqa urushmayman, voy-voy-ey, negayam uni gijgijladim! Qayt sevgilim, jonim manim, qasrni, bog‘larni joy-joyiga qaytar, boshqa senga hech gap qaytarmayman umuman, deb chinqirardi.



Parvonaning o‘zi ham xotinidan battar qo‘rqib ketgandi. Sulaymon ibn Dovud esa xaxolab kular, dastlabki daqiqalarda Parvonaga:

– Yana yerni tep, ukajonim, o buyuk sehrboz, qasrimni qaytarib ber! – deb shivirlay olmadi ham.

– Ha, unga qasrini qaytarib ber, – deb xitob qildi zulmat qo‘ynida tungi kapalakdek uchib yurgan parvonaning xotini. – Unga qasrini qaytirib ber, ortiq bunday mash‘um sehrbozlik bilan shug‘ullanma!

– Mayli azizim, aytganingdek bo‘la qolsin, – dedi Parvona o‘zini pahlavondek tutishga harakat qilib. – Mana shunaqa bo‘ladi. Menga osilaverishdan nima chiqishini ko‘rib qo‘y! Qasr joyiga qaytdimi, yo‘qmi? Bunday ishlar men uchun yangilik emas, men bu borada zarracha ham tashvishlanmayman. Faqat sening va Sulaymon ibn Dovudning hurmati uchun hammasi joy-joyiga qaytishiga e‘tiroz bildirmayman.

U shunday dedi-yu bir marta yer tepindi va jinlar shu soniyada-yoq, hech qanday siltovsiz, shovqin-suronsiz bog‘larni va qasrni o‘z joyiga tiklab qo‘yishdi.

Hammasi o‘sha-o‘sha, o‘z holida edi. Po‘rtahol daraxtlarining to‘q yashil yaproqlari yaltillab yilt-yilt qilar, qizil Misr nilufarlari orasida favvoralar shildirab oqib yotar, qushlar har qachongidan ham balandroq pardalarda avjiga chiqib sayrashardi. Kapalak esa Kofur daraxtining tagida yonboshlab olgandi. Uning qanotchalarini dir-dir titrardi.

– Kechir meni! Boshqa unday qilmayman! – derdi u takror-takror yuragi siqilib.

Sulaymon ibn Dovud esa o‘zini kulgidan to‘xtata olmas, aytadigan gapini ham qiynalib zo‘rg‘a-zo‘rg‘a aytardi. Uni hiqichoq tutib qoldi. Kulaverib holdan toyganicha Parvonaga barmog‘ini tutdi-da:

– O buyuk sehrgar, – dedi, – menga qasrni qaytarib berib, xushchaqchaq onlar ato etganingda sevinchdan o‘lib qolsam, nima bo‘lar edi?



Shu payt, birdan dahshatli shovqin eshitildi, chunki 999 malika qasrdan yugurib chiqdi, quloqni teshguday ovoz bilan chinqira boshladi. Hammalari baravariga chuvillashib mitti-mitti bolalarini chaqira boshladilar. Ular favvoralardan pastga qarab ketgan marmar zinalarda yugurishar, har zinapoyada 100 tadan xotin qatorlashib turardi.

– Nimadan qo‘rqib ketdik! Bu besh qo‘lday ayon-ku, – deb shovqinlashdi. – Biz o‘z oltin qasrlarimizda yashab yurgandik, birdan qasrimiz gum bo‘ldi, qayoqqa ketdi, bilmaymiz, so‘ng hammamiz qop-qorong‘ida qoldik, tepamizda momaqaldiraq gumburladi, zimistonda jinlar, ifridlar izg‘ib yurishardi. Bizni qo‘rqitgan ana shular! O, malikalar malikasi, ittifoqo biz o‘z qo‘rquvimizdan ham qo‘rqib ketdik. Chunki bu, biz butun hayotimizda boshimizdan kechirgan hamma qo‘rquvlar ichida, eng dahshatli qo‘rquv edi. Shunda malikalar podshosi Bilqis, Sulaymon ibn Dovudning eng sevikli xotini, Sulaymon ibn Dovudning o‘zidan ham donoroq shoxina shunday deb ularni yuptadi:

– O, malikalar, bu yerda hech qanday ofat yuz bergani yo‘q, bor-yo‘g‘i bir Parvona o‘zi bilan doim g‘idi-bidi aytishadigan xotinidan shikoyat qilib kelgan edi. Sulaymon ibn Dovud uning xotiniga erni hurmat qilib, ma‘sumona so‘zlashishni o‘rgatib qo‘ymoqchi bo‘ldi, chunki kapalaklar hayotida odob va tavoze muhim fazilat hisoblanadi, – dedi u.

Shunda fir‘avning qizi, misrlik malika o‘rnidan turdi, so‘ngra:

– Bizning qasrimizni onda-sonda yuz beradigan allaqanday bema‘ni hasharot injiqliklari tufayli asos-asosidan sug‘urib olish mumkin emas, – dedi u. – Yo‘q, Sulaymon ibn Dovud o‘lgan bo‘lsa kerak, shuning uchun yer alamdand larzaga tushgandir, shuning uchun osmon qaldiroqlari faryod ko‘targandir, shuning uchun yerni qorong‘ilik bosgandir.

Shunda Bilqis ko‘zlari bilan yer suzib, bu qo‘rqmas malikani barmog‘i bilan imlab oldiga chaqirdi, unga va barcha malikalarga yuzlanib:



– Yuringlar, uni o‘z ko‘zlaringiz bilan ko‘rishinglar mumkin, – dedi.

Ular har zinapoyadan yuztadan ayol – keng saf tashkil qilganча marmar zinadan pastga tusha boshlashdi. Kofur daraxti tagida kulaverib ichagi uzilgan va hamon o‘ziga kelolmay o‘tirgan dono podshoh Sulaymon ibn Dovudni ko‘rishdi. U o‘tirgan joyida goh oldinga, goh orqaga egilar, bir qo‘liga Kapalak, bir qo‘liga Parvona qo‘nib olgan edi. Malikalar, Sulaymon ibn Dovudning Kapalakka shunday deb tanbeh berayotganini eshitishdi:

– Ey, kelin, ukamning sevikli xotini, sen havoda yayrab uchib yurasan, bundan buyon to o‘la-o‘lguncha yodingda bo‘lsin, sen hamma sohada eringga ravish qilishing kerak, yo‘qsa u yana achchiqlanishi va yer tepinishi mumkin, chunki u buyuk sehrboz va afsungardir, balki, xushiga kelsa naq Sulaymon ibn Dovudning qasrini ham o‘g‘irlab keta oladi... Boringlar, yarash-yarash qilib o‘ynab yuringlar.

U kapalakchalarni qanotlaridan o‘pdi va ular uchib ketib, olis-olislarda ko‘zdan g‘oyib bo‘lishdi.

Shunda hanuz jilmayib oyoqda turgan malikalarning hammasi (go‘zal va savlatli Bilqisdan bo‘lak) tiz cho‘kib o‘zlaricha shunday deb o‘ylab qoldilar: «Parvonaki xotinidan norozi bo‘lganda, shunday hodisalar yuz beradigan bo‘lsa, o‘z hukmdorimizga vaqti-bevaqt qichqiraversak, haddan oshiq xarxasha qilaversak, bizday xotinlarning holi nima kecharkan?»

– Shundan keyin ular boshlariga yiltir-yiltir ro‘mollarini tashlab, kaftlari bilan og‘izlarini yumib, kalamushday sekingina qasrdagi xona-xonalariga kirib ketishdi.

Shunda go‘zal va shavkatli Bilqis qizil nilufarlar orasidan chiqib, Kofur daraxtining tagiga keldi va Sulaymon ibn Dovudning yelkasiga qo‘lini qo‘ydi.

– O, mening shahanshohim, qalbimning javohiri, suyunchi bering. Biz ikkimiz butun bu misrlik, habashistonlik, forsistonlik



va hindistonlik, xitoylik malikalarga chiroyli bir dars berdik, ular buni endi umrbod unutmaydilar, – dedi u.

Sulaymon ibn Dovud yuksak-yuksaklarda, quyosh nuri bilan o‘ynashayotgan kapalaklardan ko‘zlarini uzolmay:

– O, mening malikam, quvonchimning bebaho gavhari, qachon yuz berdi bu voqea? – deb so‘radi. – Men bor-yo‘g‘i boqqa kirib, kapalaklar bilan hazillashgan edim.

U shunday deb Bilqisga bo‘lgan voqealarning hammasini aytib berdi. Mehribon, munis Bilqis esa shunday dedi:

– O, hayotimning hukmdori! Men Kofur daraxtidan sal nari-roqda bekinib turgandim, bir-biringizga aytgan gaplaringizning hammasini eshitdim, voqealarni o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim. Kapalakni men yo‘ldan urgandim, u mening so‘zimga kirib, Parvonani yer tepishga majbur qildi. Chunki men shohim hazillashib, qandaydir bir sehrli ish qilsa, bu ishni ko‘rgan malikalar zora qo‘rqib qolishsa, deb umid qilgandim.

Shunday degandan keyin Sulaymon ibn Dovudga malikalarning nima deb o‘ylaganlari, hodisani ko‘rganlaridan so‘ng nimalar de-yishganini birma-bir boshidan-oxirigacha gapirib berdi.

Shunda Sulaymon ibn Dovud Kofur tagidagi o‘rnidan turdi, yuragi yayrab, qo‘llarini uzatib shunday dedi:

– O, malikam, asalim, kularimning porloq quyoshi, bilib qo‘y, agar men achchiq ustida va yo g‘ururim, nafsimga so‘ziga kirib, malikalarga sehrimni ko‘rsatganimda men butun dunyo hayvonlari uchun ziyofat berish orzusida sharmanda bo‘lganimdek, yana sharmanda-sharmisor bo‘lishim mumkin edi. Ammo sening donoliging tufayli Parvonaga ozroq yordam berish uchun, hazillashib sehr ishlatdim. Endi buni qaraki, shu ishni orqasida jonimga tekkan xotinlarim xarxashalaridan qutulganimni ko‘rib turibsan. O, mening janobi oliyam, yuragimning yuragi, anglat menga, sen bunday donolikka qanday qilib erishgansan?

Shunda ajoyib, ulug‘vor, qaddi-qomati kelishgan, shohina Bilqis, Sulaymon ibn Dovudga erkalanib nazar tashladi. Kapalak singari chiroyli boshini yon tarafga egib:



– O, mening shohim, buning birinchi sababi, men sizni jonimdan ortiq yaxshi ko‘raman, ikkinchidan esa, ming‘ir-ming‘ir xotin nimaligini yaxshi bilaman, – deb javob berdi.

Shunday dedi-yu, qasrga kirib ketdi va ular hayotlarining oxirigacha baxtli yashadilar.

Bilqis aqlli ish qildi, shunday emasmi?

TUYAGA O‘RKACH QAYOQDAN KELGAN?

Mana sizga yana bir ertak, bu gal men tuyaga shunday katta o‘rkach qayoqdan kelib qolganini aytib beraman.

Qadim-qadimgi eng ko‘hna zamonlarda butun Yer yap-yangi, endigina yaratilgan edi. Eng birinchi kunlardanoq hayvonlar odamlarga xizmat qila boshladi. Ammo Dahshatli-Zerikarli Sahroda ishlashni xayoliga ham keltirmagan bir Dahshatli-Zerikarli Tuya yashardi. U quruq tikanaklarni, qattiq-qattiq shoxlar-yog‘ochlarni, yulg‘unlarni, butalar va po‘stloqlarni yer, ammo sira-sira ishlagisi kelmasdi – shunday vijdotsiz bekorchi va yalqov-tambal edi. Unga bir nima desalar, og‘zidan ko‘piklar sachrab, kavsh qaytarib:

– G‘arch-g‘arch, qoch-qoch! – deb javob qaytarardi. Faqat «g‘arch-g‘arch, qoch-qoch!» – boshqa hech gap yo‘q!

Kunlardan bir kun dushanba kuni ertalab uning oldiga Ot keldi, egarlangan, tishlarida so‘lig‘i bor.

– Tuya! Hov Tuya! – dedi u. – Odamning oldiga bor, bizdan tez chopishni o‘rgan.

– G‘arch-g‘arch! Qoch-qoch! – deb javob qaytardi Tuya. Ot esa odamning oldiga ketdi va unga hammasini aytib berdi.

Ko‘p bo‘ldi Tuyaning oldiga kelganlar: Ko‘ppak keldi, tishlarida tayoq bor edi, U kelgan zahoti:

– Tuya! Hov Tuya! Odamning oldiga bor, u bilan birga yurib bizday ov qil! – dedi.

– G‘arch-g‘arch! Qoch-qoch! – deb javob berdi Tuya. Ko‘ppak esa Odamning oldiga ketdi va unga hammasini aytib berdi.



Ko'p o'tmay Tuyaning oldiga Buqa keldi, bo'ynida bo'yinturug'i bor edi.

– Tuya! Hov Tuya! – dedi u. – Odamning oldiga bor, bizday yer hayda!

– G'arch-g'arch! Qoch-qoch! – deb javob berdi Tuya. Buqa esa Odamning oldiga ketdi va unga hammasini aytib berdi.

Kechqurun Odam Otni, Ko'ppakni va Buqani chaqirib shunday dedi:

– Hoy Ot! Hoy Ko'ppak! Hoy Buqa! Men uchovingizga ham achinaman (axir, u paytda dunyo butkul yap-yangi edi!), ammo sahrodagi o'sha «G'arch-g'arch! Qoch-qoch!» deydigan hayvon hech qanday ishga yaramaydi, bo'lmasa allaqachon oldimga kelardi. Mayli, sahrosida yashayversin, men unga tegmayman, ammo sizlar ikki baravar ko'proq – o'zingiz uchun ham, uning uchun ham ishlashingizga to'g'ri keladi.

Bu gapni eshitib, Ot, Ko'ppak, Buqaning jahli chiqib ketdi (axir, dunyo yap-yangi edi!) Ular sahroning bir chekkasiga borib, baland ovoz bilan «nima qilamiz?» deb muhokama boshlashdi, vovullab, kishnab, mo'rab olamni buzishdi.

Shunda Tuya – vijdotsiz, bekorchi va yalqov – shu yerga keldida erinibgina o'tni kavshagancha ularning ustidan kula boshladi. So'ng «g'arch-g'arch» qilib kavsh qaytardi-da, asta uzoqlashdi.

Shu payt changlar bulutini ko'tarib Butun Sahrolarning Hukmdori bo'lmish Jin g'izillab yo'l yoqasidan o'tib qoldi (jinlar sehrgar bo'lgani uchun doim shunaqa yurishadi). U Ot, Ko'ppak va Buqa bilan bir hangomalashgani to'xtadi.

– Ey, Butun Sahrolarning Hukmdori! – dedi Ot. – Shundoq yap-yangi dunyoda ish shunchalik ko'p bo'lishiga qaramay, kimlardir bekor yurishga haqlimi?

– Hech kim haqli emas! – deb javob berdi Jin.

– Unday bo'lsa bilib qo'y, – dedi Ot. – Sening Dahshatli-Zerikarli Sahroyingda Dahshatli-Zerikarli bir hayvon yashaydi,



uzun bo'yinli, oyoqlari uzun-uzun, dushanba kuni ertalabdan beri ishlashni xayoliga ham keltirgani yo'q, yugurishni-ku o'la qolsa ham istamaydi.

– Uuu! – deb deb hushtak chalib yubordi Jin. – Arab yerlarining oltinlari haqqi, ont ichamanki, u mening Tuyam! U nima deydi?

– Aytar gapi «g'arch-g'arch, qoch-qoch» – dedi Ko'ppak. – «G'arch-g'arch»dan boshqa gapi yo'q. Odamga ov qilishda ham yordam bergisi kelmayapti!

– Yana nima deydi? – so'radi Jin.

– Boshqa hech nima demaydi. Faqat «g'arch-g'arch»! Yer haydashni ham xohlamaydi, – javob berdi Buqa.

– Juda yaxshi! – deb xitob qildi Jin. – Marhamat qilib, bir daqiqa kutib turinglar. Men hozir unga «g'arch-g'arch»ni ko'rsatib qo'yaman!

U o'zining chang ridosiga o'ralib oldi va Sahrosiga qarab g'irillab jo'nab qoldi. Tezda Tuyani qidirib topdi. Vijdonsiz, bekorchi va yalqov bir ko'lmak tepasida turar va hech nimaga parvo ham qilmay, suvdagi aksini mahliyo bo'lib tomosha qilardi.

– Ey, mening mug'ombir uzunoyoq do'stim! Eshitishimcha, sen yap-yangi dunyomizda ishlashni xohlamas emishsan! Bu qanaqasi?

– G'arch-g'arch, qoch-qoch! – deb javob qaytardi Tuya.

Jin qumga o'tirib qo'llarini iyagiga tiragancha, uni avrashga kirishdi, Tuya esa hech nimaga parvo ham qilmay, ko'lmakdagi aksini mahliyo bo'lib tomosha qilardi.

– Sen bunday vijdonsiz, bekorchi va yalqov bo'lganing uchun Ot, Ko'ppak va Buqa dushanba kuni ertalabdan beri to hozirgacha keragidan ortiq ishlashdi! – dedi Jin. So'ng yana iyagiga tiralib, avrashini davom ettirdi.

– G'arch-g'arch! – deb qo'ydi Tuya.

– Nega bu so'z joningga tegmaydi? Bitta gapni necha marta qaytarasan? Vijdonsiz, yalqov, bekorchi! Men sening ishlashingni xohlayman.



– G‘arch! G‘arch! – deb takrorladi Tuya.

– «G‘arch-g‘arch» bo‘lsa, mana senga o‘rkach! – dedi Jin.

Shunda birdan Tuyaning chiroyli sirti, hammaga ko‘z-ko‘z qilib yuradigan beli asta-asta shishib bo‘rta boshladi, bo‘rtib-bo‘rtib, oxiri kattakon qattiq o‘rkach o‘sib chiqdi.

– Mayli, o‘zingga mahliyo bo‘laver. Bu o‘rkach – «g‘arch-g‘arch» uchun mukofot senga. Sen vijdotsiz, yalqov, bekorchi bo‘lganing uchun, o‘sib chiqdi!

– Bunday katta o‘rkach bilan qanday ishlayman? – dedi Tuya.

– Bu senga jazo! – deb javob berdi Jin. – Uch kecha-kunduz bekor yurganing uchun jazo! Ammo endi sen uch kecha-kunduz ovqat yemay ishlashing ham mumkin. Ovqat o‘rniga o‘rkachingni yeyaverasan. Faqat «g‘arch-g‘arch»ni o‘zi bilan uch kun yashading-ku! Mana endi senga o‘rkach ato etganimdan keyin, meni o‘zingga g‘amxo‘rlik qilmayotir, deymaysan. Endi sahrodan ket, Ot, Ko‘ppak, Buqaning oldiga bor, ehtiyot bo‘l, o‘zingni yaxshi tut.

Shunday qilib o‘rkachli Tuya, Ot, Ko‘ppak, Buqalarning oldiga ketdi va u hozirgacha yelkasida o‘rkachi bilan yuradi (Biz «g‘arch-g‘arch» demaymiz, Tuyani xafa qilmaslik uchun «o‘rkach» deymiz.) va u hozirgacha o‘sha uch kunning, yer yap-yangiligida, qadim zamonda bekor o‘tkazgan uch kunning o‘mini qoplaydigan ish qilolmadi va u hozirgacha o‘zini qanday tutishni o‘rganib olgani yo‘q.

Tuyaning o‘rkachin,
 Bukurning xunugin
 Hayvonot bog‘ida
 Ko‘rdim necha bor.
 Ammo men o‘rkachning
 Undan ham xunugin,
 Undan ham shumshugin
 O‘zimda, sizda ham
 Ko‘rdim ancha bor.



Yuvuqsiz,
Paxmoqsoch,
Iflos daydilar,
Bekorchi kaslarning
Bari-barida
Serjun, juda xunuk
Qiyshiq o'rkach unar,
Bir bukrisi bo'lar
Yelkalarida.

Bayram kunida ham
Va ish kunida ham
Lanj yotamiz, bilmam,
Nelarni eslab.
Miyovlab, akillab,
Turgimiz kelmas,
Sovun, taroqlarga
Qaraymiz, esnab.

Qayga qochish mumkin
Uyatli bo'lgach?
Qayga yashiraylik
Bu bukrimizni –
Ko'z ko'rib,
Quloq ham
Eshitmagan o'rkach –
Qiyshiq va qop-qora
Sertuk yerimizni?

Qat'iy maslahat shu:
Siz quloq soling –
Tez boring sizni ish
Kutyapgan yerga!
Uxlamang, shalpaymang,



Qo'lga bel oling,
Yer choping,
Botguncha qop-qora terga.

Ishlang qor-yomg'irda,
Saratonda ham,
Ochlik ham,
Unumli mehnat ham sizning
Yozib yuboradi
O'sha seralam
Sertuk va qop-qora
Bukuringizni!

KARKIDONGA BUNDAY TERI QAYOQDAN KELGAN?

Qaysidir mamlakatda, qaysidir saltanatda, shundoqqina Qizil Dengizning qirg'og'ida Kimsasiz Orol qad ko'tarib turardi. Orolida bir Fors yashardi. Forsning bir ajoyib popog'i bor edi, quyosh nurida quyoshday yaltirardi. Ana shu popoq, bitta pichog'-u bir tandir-o'choq – Forsning bor-yo'q boyligi shulardan iborat bo'lib, sizning u tandir-u o'choqqa qo'l tekkizishga haqqingiz yo'q edi.

Bir safar Fors mayiz, un, suv, suv idish, shakar, yana har xil narsalarni bir joyga yig'di va hammasini bir-biriga qorib, xamir qildi, elakday keladigan sehrli pishiriq hozirladiki, uzunligi 29 santimetr, qalinligi 30 santimetr kelardi. So'ng uni tandir-o'choqqa yopdi; demak, bu o'choqning oldiga borish unga mumkin edi. Shunday qilib, u o'zi hozirlagan pishiriqni tandir-o'choqqa yopdi; u qip-qizil bo'lib pishdi va butun atrofga ishtaha qo'zg'aydigan mazali hid taraldi.

Ammo Fors endigina og'iz ochib, pishiriqni totib ko'raman deganda, qarasaki, bir Karkidon kelyapti. Karkidonning burni shoxli, ko'zlari cho'chqako'z, qiliqlari juda yomon yoqimsiz edi.

U paytlarda Karkidonning terisi yupqa, sip-silliq, bironta ham osilgan-solingan, qarimsiq joyi yo'q edi, ko'rinishi xuddi yog'och



o'yinchoqqa o'xshab ketardi, turgan gapki, yirik o'yinchoqqa o'xshardi, demoqchiman. Har qalay, karkidonlar hozir ham tarbiyasiz, ilgari ham tarbiyasiz edi, kelajakda ham tarbiyasiz bo'lib qoladi.

Karkidon kela solib:

– O'ho'! – dedi.

Shunda Fors pishiriqni tashlab qochdi, xurmo daraxtiga tirmashdi, bir zumda qir uchiga chiqib ketdi; boshida faqatgina popog'i bor edi va u popoq quyosh nurida quyoshday yaltirardi.

Karkidon kelib, tumshug'ini tandir-o'choqqa tiqdi, shunda tandir-o'choq ag'darildi-yu, ichidagi pishiriq qumloq bo'ylab dumalab ketdi. Karkidon pishiriqni shoxi bilan bir turtib, yeya boshladi. Uni pok-pokiza tushirib bo'lgandan keyin, kimsasiz, huvillagan sahroga qarab yo'l oldi. Bu sahro Mozandaron, So'qotra va Buyuk Tengkunlik burni bilan yon qo'shni edi.

Shunda Fors daraxtdan tushdi, tandir-o'choqni oyoqqa turg'azib qo'ydi va ichida:

Kim yemakni shox ila titgay,

O'z terisin badburush etgay, – deb yomon duo qildi. Eh, bu so'z bekorga aytilmagan edi! Chunki oradan besh hafta o'tdi-yu, Qizil Dengizga issiq kunlar keldi, har kim egnidagi kiyimini yechib tashlay boshladi. Fors popog'ini yechib tashladi, Karkidon terisini yechib, yelkasiga tashlab oldi va cho'milishga ketdi. U paytlarda Karkidonning terisi tugmalik, qorni tomondan tugmalanar, xohlagan paytida yechib olsa bo'ladigan teri edi, xuddi rezinka plashga o'xshardi.

Karkidon Forsni uchratib qolganda, uning pishirig'i to'g'risida hech nima demadi, aytdim-ku, u oldin ham, hozir ham va umrbod juda tarbiyasiz edi. U bir dumalab oldi-da, to'g'ri borib suvga tushdi va burnidan ko'piklar chiqara boshladi, terisini esa sohilda qoldirgan edi.

Fors shu yoqdan o'tayotib, qarasaki, bir teri yotibdi. U ay-yorlarcha iljayib qo'ydi – xixiladi, ikki xixiladi, uchinchi gal esa qo'llarini bir-biriga ishqalab terining atrofida aylanib raqsga tushdi.



Shundan so'ng o'zi yashab turgan joyga qarab yugurdi, pishiriqdan to'kilib qolgan ushoqlarni terib, popog'ini to'latdi. Forsning o'zi pishiriq pishirib yeganda hech qachon to'kilgan ushoqni supurib tashlamas edi. Ushoqlarni terib kelgach, bu terini oldi-da, yaxshilab ezib, obdan ishqaladi, keyin uni dasturxonday yozdi-da, boshdan-oyoq qotib ketgan, qattiq-quruq tikonday ushoqlar, tarashaday botadigan mayiz uvoqlari bilan tiqin qilib to'latdi, terining ichlariga singdirib yubordi. Shundan keyin o'sha baland xurmo daraxtiga chiqib oldi va Karkidonning suvdan chiqib kelishini, shosha-pisha kiyimini kiyib olishini kutib o'tirdi.

Karkidon chindan ham shunday qildi. Uchala tugmasini ham qadadi, shu zahoti ushoqlar uning badanini tila boshladi; odam o'ringa yotganda o'rnida ushoqlar bo'lsa, vujudi tilinib, bezovta bo'lgani kabi, Karkidon ham eti tilinib bezovta bo'lardi. U qashinmoqchi bo'lar, ammo bundan ahvoli battar yomonlashardi. U o'zini tekis yerga tashladi, yerda u yoqqa-bu yoqqa dumaladi, ana dumaladi, mana dumaladi, yana dumaladi, ammo dumalagan sari ushoqlar uni battar qiynardi – holi yana yomonroq bo'laverdi, yomonroq bo'laverdi, yomonroq bo'laverdi. Karkidon xurmo daraxtiga tashlandi, unga ishqalana boshladi, ana ishqalandi, mana ishqalandi, yana ishqalandi. U shu qadar uzoq ishqalandi, shu qadar qattiq ishqalandiki, ishqalanishdan terisi g'ijim-g'ijim bo'lib ketdi, ayniqsa yelkalari ustida va qornida bu g'ijim-g'ijimlar osilib-solinib qoldi, olddagi tugmalari uchib ketibmi, tanasiga singib ketibmi, allaqachon g'oyib bo'lgandi, keyin ishqalashdan oyoqlarida ham g'ijim-g'ijim ajinlar osilib qoldi. Bu hol Karkidonning fe'l-atvorini, tabiatini ham buzdi, ammo shundan keyin ham uvoqlar azobidan qutulmadi. Ushoqlar uning terisi ichida qolib ketdi. Uni har qachongidan yomonroq timdalardi. So'ngra timdalangancha Karkidon uyiga qarab ketdi.

O'shandan buyon to hozirgi kungacha har Karkidonning terisida juda ham qalin-qalin ajinlari bor. O'zlari ham juda yaramas fe'l-atvorli bo'lib qolishgan, terisining ichida o'sha pishiriqning qotgan ushoqlari bo'lgani uchun ham shunday bo'lib qolgan.



Fors esa xurmodan chiqib, quyoshda yiltiraydigan popog'ini bostirib kiyib, u yerdan jo'nadi, Orotavo, Amigdale, Anantarivoning Yuqori Daralar va Soputa Botqoqliklari taraflarda qorasi o'chib ketdi.

KITBALIQQA BUNAQA HALQUM QAYOQDAN KELGAN?

Bu voqea yuz berganiga ko'p bo'lgan, o'g'iljonim. Bir Kitbaliq bor edi. U dengizlarda suzib yurar, o'zidan kichik baliqlarni yerdi. Cho'rtonlarni ham, tangabaliqchalarni ham, oq baliqlar bilan sevragasini ham, selkudka balig'i bilan uning xolasini ham, chuchuk suvda yashaydigan churvaqa baliqni va uning singilchasini ham, chaqqon va suzag'on, chap berishni qotiradigan ilonbaliqlarni ham qirib yer edi, qaysi baliq duch kelsa happa-happa yutaverardi. Og'iz ochdimi – tamom-vassalom, hammasi to'ppa-to'g'ri oshqozoniga borib tushardi.

Shunday qilib desang, o'g'iljonim, butun boshli dengizda faqat bittagina baliq – Balcha-Xolcha omon qoldi. Usti xol-xol, o'zi kichkina jimitday bo'lgani uchunmi, «Baliqcha-Xolcha» deyishardi, keyin-keyin «baliqcha»ni qisqaroq qilib «balcha» deyishdi va oxiri Balcha-Xolcha bo'lib ketdi. U juda ayyor edi. Kitbaliq bilan yonma-yon ketardi, ammo o'ng qulog'ida, to'g'rirog'i, o'ng qulog'idan orqaroqda suzar edi, shuning uchun Kitbaliq uni komiga torta olmas, shu tariqa Balcha-Xolcha jon saqlab yurardi. Bir kuni Kitbaliq dumini tomonga boshini o'girib:

– Qornim ochib ketdi! – dedi.

Balcha-Xolcha mug'ombirona ingichka ovoz bilan:

– Sen hali odamni tatib ko'rmading-a? – deb so'radi.

– Yo'q, – dedi Kitbaliq.

– Shunday ketvorgan Sut emizuvchini-ya?!

– Yo'q... Uning ta'mi qanaqa?

– Judayam mazali, judayam shirin, ammo sal-pal sersuyakroq, – dedi Balcha-Xolcha.



– O’shalardan beshtasini menga olib kel! – dedi Kitbaliq. Dumi bilan suvni chapillatdi, to’lqinlar ko’piklanib ketdi.

– Eee, bittasini yesang ham to’lasan, – dedi Balcha-Xolcha. – shimoliy kenglikdan qirqinchi gradusga, g’arbiy uzunlikdan elliginchi gradusga qarab suzib bor, dengizning o’rtasida bir solga duch kelasan, o’sha solning ustida bir dengizchi bor, uning kemasi suv tagiga cho’kib ketgan. Egnida bittagina ko’k kanop ishtoni, shu ishtonni tortib ko’tarib turadigan bir juft tasmasi bor, (shu tasma yodingda tursin, o’g’iljonim!) qo’lida ov pichog’i bor, xolos. Lekin senga ochig’ini aytsam, u juda tadbirli, oqil va qo’rqmas odam.

Kitbaliq bor kuchi bilan shuvillab o’sha yoqqa ravona bo’ldi. Suzib-suzib g’arbiy uzunlikning elliginchi gradusi, shimoliy kenglikning qirqinchi gradusiga yetib bordi. Qarasaki, chindan ham dengizning qoq o’rtasida – bir sol, solning ustida – dengizchidan bo’lak hech kim yo’q. Dengizchining ustida ko’k kanop ishton-u uni tortib turgan ikki tasma, (senga yana aytamanki, jonim bolam, shu tasmalarni unutm!) yonida, belbog’idagi ov pichog’idan boshqa hech vaqosi yo’q. Dengizchi sol ustida oyog’ini suvga osiltirib o’tirardi (oyisi, u bolaligida yalang’och oyoqlarini suvda shapillatib o’tirsa, hech urishmasdi. Yo’qsa hozir suv shapillatib o’tirarmidi, shuning uchun juda aqlli va qo’rqmas-da!)

Kitbaliqning og’zi borgan sari kattayib-kattayib-kattayib, naq dumining oldigacha ochilib ketdi va xap etib bittada Dengizchini sol-poli bilan, ko’k kanop ishton-u tasma-pasmasi bilan (tasmani unutm, jon o’g’lim!), hatto ov pichog’ini ham qoldirmay yutib yubordi. Hammasi qorong’i, qop-qorong’i omborga borib tushdi. Bu ombor Kitbaliqning oshqozoni edi. Oh, qanday maza, deb Kitbaliq lablarini yalab, dumiga uch marta o’girilib qarab qo’ydi.

Juda aqlli, qo’rqmas Dengizchi qorong’i, qop-qorong’i omborga tushgan zahoti, Kitbaliqning oshqozonida umbaloq osha boshladi, tipirchiladi. U Kitbaliqning qorinlarini tishladi, tepib tashladi, mushtladi, do’pposladi, tarsakiladi, tepdi, taqillatdi, chertdi, shundoq noqulay joy bo’lishiga qaramay, tepma raqsga tushdi, shunchalik ko’p



sho'xliklar qildiki, Kitbaliqning asta-sekin ko'ngli ayniy boshladi (umid qilamanki, tasmalarni unutmagansan!) Kitbaliq Balcha-Xolchaga zorlandi:

– Bu odam deganing menga yoqmayapti, mazasining uncha tayini ham yo'q.

– Unday bo'lsa, unga ayt, og'zingdan sakrab chiqib ketsin! – deb maslahat berdi Balcha-Xolcha.

– Hoy, menga qara, – qichqirdi Kitbaliq o'z og'ziga. – yo bu yoqqa chiqib ket, yo bo'lmasa kirgan joyingda jimgina o'tir, seni deb meni hiqichoq tutib qoldi.

– Gap bundoq, – dedi Dengizchi, – menga bu yer yoqib qoldi. Ammo sen chiqib ketishimni xohlasang, meni ona-yurtimning qirg'oqlariga, Angliyaning oppoq qoyalari olib bor, ana o'shanda men bu yerdan chiqishim kerakmi, yo'qmi – o'ylab ko'raman. Shunday degandan keyin Kitbaliqning oshqozoniga yanada qattiqroq tepa boshladi.

– Nima ham qilarding, uni uyiga olib bor, – dedi kitga ayyor baliqcha. – Men senga u juda aqlli va qo'rqmas degandim-ku!

– Bo'pti, – dedi Kitbaliq va yo'lga tushdi. Hiqichoq unga qattiq xalaqit berayotgan bo'lsa ham, butun yo'l davomida dumini va ikki suzg'ichini o'ynatganicha suzib ketaverdi, suzib ketaverdi, suzib ketaverdi.

Nihoyat Angliyaning oppoq qoyalari ko'zga tashlandi. Kit naq qirg'oqning o'zigacha suzib bordi va og'zini kaaatta-kaaatta ochdi. So'ng odamga:

– Chiq endi! Ana tushsa bo'ladigan joylar, eng yaqin bekatlar: Vinchester, Ashuelot, Nashua, Kini va Fichboro.

U «Fich» deyishi bilanoq Dengizchi og'izdan sakrab tushdi. Bu Dengizchi chindan ham juda aqlli va qo'rqmas edi. Kitning qornida o'tirgan vaqtini bekorga o'tkazmagan ekan. Pichog'i bilan o'z solini ingichka-ingichka sinchlarga bo'lib tashlab, ularni bir-biriga tasmasi bilan chalishtirib bog'lab panjara yasagan (Endi tushungandirsan, nima uchun tasmalarni yodingda tut deganimni!) va bu panjarani



Kitning bo'g'ziga mahkam qilib o'rnatgan va o'rnatayotganda sehrli so'zlar aytgan edi! Sen u so'zlarni eshitmagansan, to'g'rimi? Men senga bajonidil o'sha so'zlarni aytib beraman.

Panjarani o'xshatdim,

Kit bo'g'ziga o'rnatdim, – degandi u.

Shu so'zlarni ayta turib, u qirg'oqqa, mayda toshlar ustiga sakrab tushdi va suvda yalangoyoq yurgan paytlarida hech urishmagan oyisining oldiga odimlay ketdi. Keyinchalik u uylandi, yaxshi hayot kechira boshladi. Kitbaliq ham uylandi va u ham baxtli edi. Ammo shu kundan boshlab to abadulabad uning bo'g'zida panjara bor bo'lib, na uni yutib yubora olar, na tuflab tashlay olar edi. Shu panjara tufayli endi uning bo'g'zidan faqat mayda-chuyda baliqchalargina o'tardi. Ana shunig uchun hozirgi paytlarda kitlar odamlarni yutmaydi. Ular hatto kichik bolalar-u jajji qizchalarni ham yutolmaydilar.

Ayyor Balcha-Xolcha esa, olis-olislarga, Ekvatorning ostonasiga suzib ketdi va dengiz ostidagi yo'sinlar tagiga yashirindi. U Kitbaliq achchiqlangan bo'lsa kerak, deb o'ylagandi, shuning uchun ham unga ko'rinishdan qo'rqardi.

Dengizchi esa ov pichog'ini ola ketgan, sohildagi toshloqda hamon ko'k kanop ishtonini kiyib yurardi, faqat endi ishtonni yelkasiga tortib turadigan tasmalari yo'q edi. Ular Kitbaliqning bo'g'zida qolib ketgan, ana o'shalar bilan Dengizchi ingichka sinchlarni bir-biriga bog'lab, panjara yasagan edi-da!

Mana, tamom-vassalom. Ertak ham tugadi.

Zangori zulmat bo'lsa
 Kayutalarning ichi,
 Ustuniga sachrasa
 To'lqinlardan nuqralar,
 Har daqiqa sakrasa
 Kemaning dumi, uchi,
 Osh suza turib oshpaz



Yiqilib ketsa agar
Va birdan dumalasa
Qaynab turgan samovar;

Bolacha to tushgacha
Turmasa yo jilmasa,
Enaga yotsa yerda
Bamisoli qop bo'lib,
Onangning boshi og'rib
Zirqillab qirsillasa,
Biron odam kulmasa,
Yeb-ichmasa, sop bo'lib,–

Anglarsiz so'zlar qanday
Qo'rqinch-la tovlanishin –
Qirqta nord, ellikta vest
Nima ma'no berishin!



UOLTER DE LA MER



Uolter De la Mer 1873-yilda Angliyaning Charlton degan shahrida tugʻilib, 1956-yilda Londonda vafot etgan. Dastlab savdo firmasida xizmat qilgan. Adabiy faoliyatini 1898-yildan boshlagan.

Birinchi sheʼrlar kitobi 1902-yilda «Bolalik qoʻshiqlari» nomi ostida bosilib chiqqan. Keyin, 1906-yilda «Sheʼrlar» degan, 1912-yilda «Tinglovchilar», 1919-yilda «Flora» («Oʻsimliklar dunyosi») degan kitoblari nashr etildi va darhol butun Angliyada bolalar oʻrtasida ommalashib ketdi. 1921-yilda bosilib chiqqan «Kichkintoyning xotiralari» nomli hikoyalar kitobi ham katta shuhrat qozondi.

Umuman De la Mer XX asrning taniqli va barcha xalqlar tomonidan tan olingan shoirlaridan biridir. Ingliz tilida soʻzlovchi hamma mamlakatlarda uning nomini chet ellik adabiyotshunoslar Bleyk, Lir, Kipling bilan bir qatarga qoʻyadilar. Uning hamma asarlari – sheʼrlari, lirik dostonlari, falsafiy miniatyuralari, hazil ohangidagi hajviyalari har qanday yoshdagi bolalarga va kattalarga moʻljallangan. Shuning uchun ham uning kitoblaridan biri: «Bu yoqqa kel. Har qanday yoshdagi yoshlar uchun sheʼrlar va dostonlar toʻplami» (1923) deb atalar edi. De la Mer kattalarga yozganda ham kitoblari bolalar tomonidan ham sevib oʻqilaverdi. Bunga misol qilib «Muhabbat» (1943), «O, sevikli Angliya»



(1956) nomli to‘plamlarini keltirish mumkin. Ham kattalar, ham bolalar birday sevib o‘qiydigan she‘r yozishni hamma shoirlar ham eplayvermaydilar. Bu aslida o‘ziga xos iste‘dod belgisidir.

De la Mer insoniy tuyg‘ularning turlicha hollarini, yuzaki qaraganda safsata bo‘lib ko‘rinuvchi aqlli hazillari ortida chuqur falsafiy fikrlari, nozik va aniq xulosalarini bolalarcha sodda va qiziqarli shakllarda ifodalay oluvchi noyob shoirlar toifasiga kiradi. Dono pand-nasihatlarini aforistik va grotesk shakllar bilan ulay bilish san‘ati unga xalq og‘zaki ijodi ta‘siridan o‘tganligini payqash mumkin.

De la Mer o‘z vatanida xalq og‘zaki ijodi namunalari, muallifi noma‘lum eski ingliz qo‘shiqlari va she‘rlarini to‘plovchi shoir sifatida ham tanilgani bejiz emas. U bolalar uchun katta tarbiya kuchiga ega bo‘lgan, badiiy nutqi go‘zal asarlarni muntazam nashr etib turish zarur, deb hisoblaydi. O‘z ijodida ham xalq she‘riy ijodining bebaho sifatlarini saqlab qolishga intiladi.

Uning she‘rlari ko‘pincha bolalar sanamalari, ajoyib o‘yin-qo‘shiqlarini eslatadi. Ayni chog‘da De la Mer she‘riyati o‘zida XX asrning hamma belgilarini ham aks ettirgan. Ular ashaddiy to‘qnashuvlar, xilma-xil asosga ega bo‘lgan iztiroblar – mehr va sog‘inch, o‘zgaruvchan kayfiyat va boshqa umuminsoniy his-tuyg‘ularga boy, she‘rlarning qurilmasi esa antiqa va murakkab. Ayni chog‘da bolalar ularni tushunishda qiynalmaydilar va ularni sevadilar.

De la Mer haqiqiy she‘riyat haqida so‘zlarkan, bolalarga asl shoirning vazifasini shunday deb tushuntiradi: «Shoirning ustasi bo‘lish degani ona tilining haqiqiy, puxta o‘ylangan, asoslangan, aniq, nozik va quloqqa shirin eshitiluvchi so‘zlarini topib, iloji boricha yaxshiroq yozish kerak, deganidir». Bu kunga qadar bu ajoyib shoirning ijodi o‘zbek o‘quvchisiga yaxshi tanish emas edi. Faqat 2003-yilning yozida ilk bora De la Merning ijodi haqida O‘zbekiston radiosi va «Ma‘rifat» gazetasi sahifalarida ma‘lumot va ijodidan namunalar e‘lon qilindi.



She'rlar

SHAQIR-SHUQUR

Bir qulf bor – ochqichi yo‘q,
Bir eshik bor – tutqichi yo‘q.
Bitta uy bor – ayvoni yo‘q,
Bir bino bor – maydoni yo‘q.

Har narsa bor, har narsa,
Barida yo‘q bir narsa.
Shaqir-shuqur, shaqir-shuq,
Har narsada nedir yo‘q.

Yer, yuzingni ochib tur!
Quyosh, nuring sochib tur!
Chumchuq, qo‘rqma, ining qur!
Kelsin hamma gurra-gurr!

Keling qushlar, hayvonlar –
Juda keng bu maydonlar.
Xohlagan joyni ko‘zlang,
Lekin el tinchin buzmang.

OTLIQ

Tepalikdan otliq
Tushdi, eshitdim.
Oy xira nur sochar,
Atrof edi jim.
Dubulg‘asi kumush,
Rangpardi qo‘noq,
Filning suyagiday,
Ayg‘iri – oppoq.



HAR NARSA KUMUSH...

Kumush tufli kiyib yasangan hilol
 Qop-qorong'i tunda kezar bermalol...
 Kumush nigoh bilan u termilgan chog'
 Olchalar yonadi, kumushlanar bog'.
 Oy chaqnar – ko'zlarin qisar darchalar,
 Kumushlanar derazada pardalar.
 Bilmas yotganini naq kumush taxlit
 Inida miriqib uxlayotgan it.
 Nur, kaptarxonaning tushar ichiga –
 Kaptarning kumush pati kirar tushiga.
 Sichqon chopar – kumush tirnoqchalari –
 Kumushday yiltirar qaroqchalari.
 Soyda baliqlarning bir qanchalari
 Qilt etmas, kumushdan tangachalari.

TINGLOVCHILAR

Eshiklar oldida, oydin bir kecha
 Yo'lovchi qichqirdi: «Hoy, bormi birov?»
 Sal narida – oti, daraxt tagida
 Kirt-kirt o't chaynardi alomat bedov.

Og'ir eshiklarni dukurlatdi u:
 «Hey, bormi bu yerda tirik bir jonzot?»
 Yo'lovchining boshi uzra seskanib
 Birdan minoradan uchdi qush, azot.

Quyuq daraxt osti, derazalardan
 Yo'lovchi yoniga chiqmadi hech kim.
 Tildan qolayozgan oddiy insonga
 Insoniy ko'z bilan boqmadi hech kim.



Faqat tinglovchilar – jimjit sharpalar –
 Notinch bo‘lmasin deb yotoq uylari
 Oydinda jim turib, tinglar edilar
 Ovozni, tili bor odam singari.

Qorong‘i dahlizda bo‘lishib g‘uj-g‘uj
 Bo‘m-bo‘sh mehmonxona yo‘lagin to‘sib,
 Zulmatni tilyapgan ma‘yus ovozga
 Quloq solardilar jimgina pusib.

Yo‘lovchi his qildi, yaxshi angladi,
 Ularning javobi – ana shu sukut.
 Ko‘kdan barg oralab ot sag‘riniga
 Tushardi oy nuri, bamisoli qut.

To‘satdan yo‘lovchi gung eshiklarni
 Qattiqroq-qattiqroq urdi-ya, e, voh:
 «Qasamga rioya qilib, keldim men,
 Ammo endi menga kim bo‘lar guvoh?»

Uning shikoyatli hayqiriqlari
 Uylarning ustida taratdi sado.
 Ammo sharpalar gung va soqov edi,
 So‘ng mana u yana qaytdi shu asno:

Ular uzangilar jaranglashini,
 Tuyoqlar zarbini eshitdilar lol,
 Go‘yo selda qolib cho‘kkanday, yalpi –
 Sukut komida yo‘q bo‘ldilar alhol.



ARABISTON

Arabiston soyalarida
 Ketayotir shahzoda otda,
 Qalin o'rmon, yashil o'rmonda,
 To'lin oydan chatnagan o'tda.
 Yovvoyi va quyuq o'rmonning
 Gullari ko'p qizil, to'q qizil –
 Ular yulduzlarga intilar,
 Kunduz rangsiz yulduzlar bir xil.

Arabiston qo'shiqlaridan
 Turdim, qalbda shirin hayajon.
 Nafis tongda tinglab ularni,
 Dilni ezdi alamli hijron.
 G'arib bir ud yangrar o'tzorda,
 Kuylar baxt-u g'am balosini,
 Sozandaning jasur qo'llari
 Titratadi tun havosini.

Men bilandir ud va o'tloqlar,
 Boshqa pari ko'rinmas sira.
 Ko'z o'ngimni to'sgan pardalar,
 Chorlar meni birgina chehra.
 Sovuq nazar bilan odamlar
 Boshlashadi orqamdan g'ulu:
 «Arabiston jodularidan
 Yo'qotibdi es-hushini u.»

AQIQ

Bill amakim –
 Sayyoh va hakim.
 Besh yil yashagan turli g'orlarda,
 changalzorlarda.



Yiqilib tushgan sharsharaga u,
 Boshiga do‘l ham yog‘ilgan duv-duv.
 Qaytgan salomat ko‘p yo‘llar yurib,
 Chad ko‘lin ko‘rib.
 Qolmagan undan Asvon, Ashxobod,
 Gonolulu va Ararat, Mashhad.
 Qorayib qaytgan shokoladdan ham,
 Dorvozdandildam.

Bat orolidan o‘tgan hattoki,
 Sherdan ham qo‘rqinch,
 Tebranib turgan Yerdan ham qo‘rqinch.
 U borgan joyda toklar ko‘p ekan,
 noklar ko‘p ekan.
 Qorong‘i g‘orda uchrabdi sandiq,
 naqshida ikki to‘ti bor qiziq.
 Sandiqni ochsang – chimirilar qosh:
 Ichi to‘la tosh, biri – AQIQ tosh.

– Bu senga, Navvi,– dedi amakim,–
 AQIQing bo‘lsa, sen boy bo‘lasan.
 AQIQing bo‘lsa, hech unutmakim,
 Nima xohlasang– qila olasan!
 Men AQIQ toshni
 ko‘mdim tuproqqa,
 keyin yostiqa qo‘ydim-u boshni
 tushdim mudroqqa.

Biroq turganda – shuyam sehrmi? –
 Unutdim AQIQ ko‘milgan yerni.
 O‘shandan buyon o‘ylayman har dam
 Ikki chakkamdan siqib boshimni:
 Qanday baxtiyor bo‘lardim topsam,
 Sehrli AQIQ – kichik toshimni.



G'A!

Ikki ko'zi ikki fonar singari
 Sutdan ham oq o'rdak bormoqda olg'a.
 Suzar ekan sokin ko'lda gerdayib
 Bir so'z aytib qo'yar, aytgan so'zi «G'a!»

Tiniq suvda suzgan shu kichik o'rdak
 Mayda baliqlarga – qo'rqinch qasirg'a!
 Ularni yaxshilab kuzatar avval,
 So'ng bir so'z deb qo'yar, aytgan so'zi «G'a!»

Tol tagiga ushoq sochadi Molli,
 Ikki qulog'ida ikki isirg'a.
 O'rdak ko'z qirini tashlaydi unga,
 So'ngra bir so'z aytar, aytgan so'zi «G'a!»

Kahraboday sariq tumshug'i bilan
 Patlarin tozalab chiqqach sidirg'a,
 Lapanglab uyiga qaytib kelarkan
 Bir so'z aytib qo'yar, aytgan so'zi «G'a!»

TEGIRMONCHI

Bor ekan-da yo'q ekan, tegirmonchi bor ekan,
 Dengiz ko'pigi kabi oqman, deb kuylar ekan,
 Saratonda gullagan oq gul kabi oppoqman,
 Oq qo'ziday oppoqman, parqu kabi oppoqman.

Barmoqlarin o'ynatib kuylarkan quvnoq-quvnoq:
 Etagim bo'rday oppoq, qalpog'im undan oppoq,
 Yuz-ko'zim qordan ham oq, kiprigim undan ham oq,
 Daryo yuzida suzgan oq yelkandan ham oqroq.



Eski tegirmonimning yonida gullab turgan
Chinniguldan go‘zalroq hech ne yo‘q, deb o‘ylayman.
Oydinda hozir yog‘gan qorda yayrab barq urgan
Hatto shu gul bilan ham musobaqa o‘ynayman.

BIR BOSH UZUM

– Bir bosh uzum,– dedi Syuzi,
– Shaftoli,– dedi Elen.
– Menga muraboli non,–
Xo‘rsingancha dedi Jen.

– Gunafsha,– dedi Syuzi,
– Qizg‘aldoq,– dedi Elen.
– Menga bir bog‘ moychechak,–
Xo‘rsingancha dedi Jen.

– Menga qanot,– dedi Syuzi,
– Menga kema,– der Elen.
– Shoshmay boray aravada,–
Xo‘rsingancha dedi Jen.

PARQU BO‘LAR BOLISHDA

Bodring bo‘lar dalada,
Fikr bo‘lar kallada,
Etik bo‘lar omborda,
Bulbul bo‘lar gulzorda.
Pul bo‘ladi hamyonda,
Un bo‘lar tegirmonda,
Patak bo‘lar kalishda,
Parqu bo‘lar bolishda.



Baliq bo‘lar daryoda,
 Ilm bo‘lar siymoda.
 Hamma bola o‘quvda,
 Men yotibman uyquda.

QUT ULASHUVCHI FARISHTALAR

Uyg‘ongan chog‘imda har yoq jim edi,
 Birdan ashulaning yangrog‘i keldi:
 «Tezroq o‘rningdan tur,
 Kiyin va yugur!
 Hey bo‘l-ey! Qimirla! Turasan qachon?
 Devor ortidamiz,
 Archa ostida,
 Bizga yetib olish juda ham oson!»

Oynadan qaradim – uxlardi o‘rmon,
 Qo‘shiq esa chorlar, tinmasdi hamon:
 «Biz qut ulashuvchi farishtalarmiz!
 Do‘ngdagi saroyda seni kutarmiz.

Bekinmashoq o‘ynaymiz,
 Quvlashmashoq o‘ynaymiz,
 Quyuq daraxtlarning soyalarida.
 Bir quvib, bir qochamiz,
 So‘ng arg‘imchoq uchamiz
 Qarag‘ay shoxlari, poyalarida.
 Suzma, qaymoq beramiz,
 Sara bodroq beramiz,
 Asal kabi shirin ananas yeysan.
 Beramiz senga yong‘oq,
 Murabbo va muzqaymoq,
 Totib ko‘rib bizga tashakkur deysan».



Bu gapni eshitib turmoqchi bo'ldim,
 Ularning oldiga bormoqchi bo'ldim.
 Ammo shippagimni topgunimcha to,
 Ashula ovozi so'ndi, yo'qoldi.
 Oynadan tong asta mo'ralab qoldi.
 O'rmondan bir ovoz keldi pirillab –
 Bulbul sayrar edi chahchah–chirillab.

DERAZA OLDIDA

Hovliga qarayman pardani surib,
 Kinoday pildirar hovlida kaslar.
 Men anchadan buyon ularni ko'rib
 Turganimni esa ular bilmaslar.

Men turgan xonani ko'rmaydi hech kim,
 Kun tushgan oynaga qaramaydilar.
 Deraza oldida qancha turganim,
 Qachon ketganimni payqamaydilar.

BEKINMACHOQ O'YNAYMIZ

– Bekinmachoq o'ynaymiz, – dedi-yu hilol
 Osmondan yiqildi o'rmonga.
 – Bekinmachoq o'ynaymiz, – dedi-yu shamol
 Yo'q bo'ldi tepalik tomonda.
 – Bekinmachoq o'ynaymiz, – dedi bulutlar
 Ko'rganda yulduzni samoda.
 – Bekinmachoq o'ynaymiz, – dedi to'lqinlar
 Yo'q bo'ldi qaydadir daryoda.
 – Bekinmachoq o'ynaymiz, – degan so'zimga
 Soat jiringladi, ko'zimni yumdim.
 – Bekinmachoq o'ynaymiz, – dedim o'zimga
 va butunlay uyquga cho'mdim.



QAYDADIR

Qaydadir,
 Qayerdadir –
 Olis yurtda hoynahoy,
 Olam chetida balkim, –
 Bor QAYDADIR degan joy,
 O‘y layman uni doim.

Qaydadir, qayerdadir
 Bu nomni eshitganman –
 Ko‘nglimga qayd qilganman.
 Unga qanday borilar –
 Bunisini bilmayman.
 Ammo tulpor otimda
 Oshaman dovonlardan,
 Kerak bo‘lsa suzaman –
 O‘taman ummonlardan.
 O‘taman daryolardan,
 Kezaman dunyolarni –
 Ammo QAYDADIR nomli
 Joyni topaman axir.

Qaydadir, qayerdadir
 Mo‘jazgina bir uy bor,
 Issiq, shinam uyda bir
 Sufra ustida qator
 O‘tirishar insonlar,
 Mushuklar va sichqonlar.
 Ular o‘choq yonida
 burunlarin isitib
 o‘tirar meni kutib.



Yemakxona, qaznoqda
 Tayyor turar piyoz non,
 Yoqib moyli chiroqni
 Solishar shovqin-suron.
 Qoshiq, kosalar turar
 Taxlangan cha javonda.
 Derazadan ko'rinar

G'uj-g'uj yulduz osmonda.
 Keragi shu-da menga,
 Men-u mushuk-sichqonga.

Qaydadir, qayerdadir
 Mushukning oti Yumshoq,
 Yaxshi ko'rgani qaymoq.
 Mushuk yana sevadi
 O'z junini yalashni.
 Sichqon esa kichkina –
 Biz bilamiz ayashni.
 Lekin bu sichqonchaning
 Haligacha oti yo'q.
 Chaqirsangiz kelmaydi,
 Hali intizomi yo'q:
 Chopar dumin o'ynatib
 Devorlar kavagida
 Yo yerto'la tagida...
 O'sha QAYDADIR degan
 O'lis yurtga ketaman.
 Izlab QAYDADIR degan
 Sokin yurtga yetaman.
 Qushlar yetolmaydigan
 Uzoq cho'lda bo'lsa ham
 Albat topib borishga



Qat'iy ichganman qasam.
 O'lis bo'lsa ne bo'пти –
 Mening uchun baribir.
 Nomini eshitsam-u
 O'zin ko'rmasam – og'ir.

Bir kun tulpor otimda
 Oshaman dovonlardan.
 Kerak bo'lsa suzaman –
 O'taman ummonlardan.
 Kunni kun ham demayman,
 Tunni tun ham demayman,
 Jaziradan qo'rqmayman,
 Ko'zlarimni yummayman.

Meni oftob urmaydi,
 Yomg'ir, jala surmaydi.
 NEGA hududin titib,
 NIMA UCHUNDAN o'tib,
 Faqat olg'a chopaman –
 QAYDADIR, QAYDADIRni,
 QAYDADIRni topaman.

HAYHOT

Kimdir qoqdi tunda
 Darvozamizni.
 Bu hol hayron qildi
 Oilamizni.
 Men aniq eshitdim
 Ovozni o'zim.
 Ammo tashqarida
 Yo'q edi hech kim.
 Faqat tillaqo'ng'iz



G'uvillar edi.
Faqat bir chirildoq
Chirillar edi.
Boyo'g'li sadosi
Yangrardi bot-bot...
Bilmadik:
Kim bizning eshikni qoqqan?
Hayhot, hayhot, hayhot!



ALAN MILN

Angliyaning 1882–1956-yillarda yashab oʻtgan yozuvchisi Alan Miln oldiniga juda koʻp pyesalar, sheʼrlar va nasriy asarlar yozgan edi.

Ammo XX asr boshida bolalar uchun «Biz juda kichikligimizda» va «Biz oltiga kirganimizda» degan ikki kitob chiqarganda, faqat bolalar oʻrtasida emas, kattalar orasida ham dongdor boʻlib ketdi.

1926-yildan boshlab to 30-yillarning oʻrtalarigacha bolalar uchun u yana bir asar yozdi va bu asar keyinchalik koʻp tillarga tarjima qilinib butun jahonga tanildi. Bu – Vinni Pux degan ayiqcha, Kristofer Robin degan bola va uning xushchaqchaq ogʻaynilari haqidagi asardir. Oʻzbekiston bolalari ularni multfilmlar orqali yaxshi tanishadi. Agar bu asar oʻzbekchaga tarjima qilinsa, Vinni Puxning oti Vinni Par boʻladi. Chunki Kristofer Robin hayvonot bogʻida Vinni ismli chiroyli bir ayiqchani koʻrgan, unga havasi kelgan, bir koʻlda esa yumshoq parli Oqqushni yoqtirib qolgan, uni: «Parr! Hoy parr!» deb chaqirar, keyin Par yoʻq boʻlib ketgan, ana oʻshalarning xotirasiga ayiqchasini Vinni Par deb atagandi.

Alan Milnning bu asari, ichida sheʼrlari koʻp boʻlgan oʻn sakkizta sarguzasht ertakchadan iborat. Miln bolalar dunyoni qanday tushunishini va qanday idrok etishini juda yaxshi biladi, bolalarning tabiiy tilini zimdan quloq solib yaxshi oʻrganib olgan. Hayotning turli vaziyatlaridagi savol-javoblarini va eng xarakterli soʻzlarini oʻmi-oʻrniga qoʻyib ishlatadi. Vinni Par, Kristofer





Robindan eshitib olgan soʻzlariga taqlidan oʻzicha har xil soʻzlar toʻqib chiqaradi. Masalan, oʻzi toʻqigan qoʻshiqlarini birda shovqinlamalar yo akillamalar, birda buruntortmalar yo pixillamalar va yo qichqirmalar deb ataydi.

Shu tariqa muallif bolalarning qay tariqa soʻz ijod qilishlarini koʻrsatadi. Kichkintoylarning topqirlikka oid oʻyinlari, soʻz ixtiro qilishlari, xalq ogʻzaki ijodining turli andoza va yoʻriqlaridan foydalanish – mana shular Alan Miln ijodiyotining oʻziga xos tomonlaridir. Uning sheʼrlarida bola fantaziyasi butun borliqni boshqacha koʻradi va qayta koʻrishga intiladi. Chunonchi, «Toʻrtinchi stul» sheʼrida bola stullarga minarkan, birinchi stulda oʻzini kapitan, uchinchi stulda uchuvchi, ikkinchi stulda yoʻlbars deb tasavvur qiladi. Butun borliq, atrofidagi narsalar bola ularni qanday koʻrgisi kelsa, shunday narsaga aylanadi. Alan Miln sheʼrlarining aksariyatida chuqur ijtimoiy maʼnolar ham bor, albatta. Uning sheʼrlari bilan tanishganingizda bunga oʻzingiz ham qanoat hosil qilasiz.

Sheʼrlar

ER YIGITLAR VA XONIMLAR

Kitoblarda rasmlar derki:
 Er yigitlar kelishar erkli.
 Safni buzmas ot minib ular
 Taraq-turuq qilar tosh yoʻllar.

Ular oʻtsa, «jonim» «jonim»lab
 Boqar moviy roʻmol xonimlar
 Va jilmayib qoʻyishar birda,
 Shunday edi Oʻrta Asrda.

Uydan boqsam yaqin-yiroqqa
 Qor yogʻibdi toqqa,– har yoqqa...



Tog'liklarning qora archasi
Saf qurishib borar barchasi.

Ular ko'hna qahramonlarday
Vazmin, xushqad, zabti arslonday.
«Voh, qanday zo'r qora o'rmonlar!»—
Deb engashib boqar osmonlar.

Har gal meni bosar xavotir:
Shu archalar to'satdan hozir
Er yigitlar bo'lib qolsa-ya!
Otlarini jangga solsa-ya!

Bunday bo'lmas... Ehtimol, bo'lar?
Mangu jumboq siz uchun ular.

BIR KUNI MEN BO'LDIM BIR UYDA

Bir kuni men bo'ldim bir uyda,
Ammoki, bu – uy emas edi.
Garchi burma zinalari bor,
Eshiklari bor-u naqshinkor,
Ammo uning
bog'chasi yo'q,
bog'chasi yo'q,
Uyga sira o'xshamas edi.

Bir kuni men bo'ldim bir uyda,
Ammoki, bu – uy emas edi.
Qalingina bog'i bor chaman,
O'sib yotar terak va eman.
Ammo uning
olchasi yo'q,
olchasi yo'q,
Uyga sira o'xshamas edi.



Bir kuni men bo'ldim bir uyda,
 Ammoki, bu – uy emas edi.
 Har tarafi oppoq daraxtzor,
 Olchalari bor edi qator.
 Ammo uning
 qora qushi yo'q,
 qora qushi yo'q,
 Uyga sira o'xshamas edi.

Bir kuni men bo'ldim bir uyda,
 Eh, bunisi chinakam uykim –
 Har tarafi daraxtzor oppoq,
 Unda sayrar bir qorayaloq!
 Ammo afsus:
 eshitmas hech kim
 va bilmas hech kim,
 Bilishni ham istamas hech kim!

IKKI KARRA

O'rmonda yashardi ikki yosh ayiq.
 Biri Yaxshi, biri Yomonki qiyiq.
 Yaxshisi yodlardi: «ikki karra bir...»
 Yomoni yurardi yuvinmay kir-chir.

Yoz o'tloqda uxlar ikki yosh ayiq,
 Biri Mo'min edi, boshqasi Qiyiq.
 «Ikki karra ikki» der Yaxshi Ayiq,
 Kir qo'lin qo'ltiqqa surtardi Qiyiq,

Qish kavakda uxlar ikki yosh ayiq.
 Biri Mo'min-qobil, boshqasi Qiyiq,
 Yaxshi «ikki karra uch»ni yodlasa,
 Shomgacha o'ynardi Qiyiq uch xissa.



Lekin shaxs o'zgarar bizda har zamon –
 Yomon – Yaxshi bo'lar, Yaxshisi – Yomon.
 Mana, Yaxshi karra yodlashdan tindi,
 Yomon bozor kuni obdan yuvindi.

Yaxshi karrasini takrorlamadi,
 Yomon yengin yuvdi. Kiri qolmadi.
 Yaxshi karrasiga boqmadi qayta,
 Yomon o'yinlarin bitkazdi erta.

Qissaning hissasi bo'lar doimo,
 She'r yozdim o'zimga qilib bir imo.
 Yomon – gulday bo'ldi, Yaxshi – shumday bo'ldi –

O'g'limda va menda xuddi shunday bo'ldi.
 «Ikki karra besh»ni esladi o'g'lim,
 Men esa ruchkamni yo'qotib qo'ydim.
 Shu bois bu she'rni yozdim qalamda.

TO'RTINCHI STUL

Stulga o'tirdim. Men kapitanman.
 Men dengizga burdim safarni.
 Menga qo'rqinch emas bo'ron va tuman,
 Yo'q qilaman qaroqchilarni.

Uchinchi stulda men uchuvchiman.
 Uchib ketdim Oyni qarshilab.
 Oy keldi oldimga bulut ichidan,
 Salom berdi menga yaxshilab.

Ostimda ikkinchi stul qirsillar,
 Yo'lbars bo'lgim keldi-da birdan!



Oyimga qaradim irillab,
Gaplashmadim opacham bilan.

Ammo oyim shovqin soldi-da
Choyga chorlab qoldi daf'atan.
Yoshim qayta kichrayib qoldi,
Bola bo'lib qoldim qaytadan.

Zerikarli edi to'rtinchi stul –
Qaytarib tushirdi meni yerga ul.

ARG'IMCHOQ QO'SHIG'I

Arg'imchog'im balandlasa,
Yurakkinam o'ynoqlar.
Ancha pastda qolib ketar,
Baland tom-u chordoqlar.

Olis qirlar va emanning
Uchlarini ko'raman.
Yer hokimi bo'ldim-u, deb
Yayrab qah-qah uraman.

Yana biroz balandroqqa
Chiqsaydi bu arg'imchoq

Osmonning ham hukmdori
Bo'lar edim men u choq.
Quyoshga ham yetishimga
Bir daqiqa qoladi.
Ammo, qarang, arg'imchog'im
Pastga tushib boradi.



ISHBILARMON DENGIZCHI

Buvam so‘zlab berardi ba‘zan qizganda ichi:
 – Bu dunyoda, – der edi, – bor edi bir dengizchi,
 Ertalab talay ishni mo‘ljallab qo‘yar edi,
 Qay biridan boshlashni kechgacha o‘ylar edi.

Uni uloqtirgandi qattiq bo‘ron orolga,
 Qalpoq, quruq kiyimni o‘ylab toldi xayolga.
 O‘yladi mevalarni, toshbaqa va turlarni,
 Kitoblarda aytilgan yegulik har turlarni.

Ming xil narsalar haqda o‘ylab-o‘ylab oxiri,
 Topilib qolar, dedi, ariqchalarning biri.
 Lekin yashash yashashday bo‘lsin desam eng burun
 Qo‘zi, uloq va jo‘ja topishim kerak bugun.

Ammo hammadan oldin bir uy qurmasam bo‘lmas,
 G‘ijirlagan eshikli hamda qulfi ochilmas.
 G‘ijirlagan eshikdan qo‘rqadi axir ilon,
 Va qulfi bo‘lsa uying, kirolmas yirtqich hayvon.

U qulf yasay boshladi, ammo ish qoldi chala,
 Quyoshning tig‘i unga berganday bo‘ldi xalal.
 «Oldin po‘stloqdan qalpoq to‘qib olayin», dedi –
 Yelkani jaziradan asramoq kerak edi...

Novdalar, bargaklardan to‘qiy boshladi qalpoq,
 Ammo o‘yladi: «O‘hho‘, qizib ketdimki andoq,
 Bu holda hech gap emas o‘lib qolishi odam!
 Avvalo ariq topib, cho‘milib olay bir dam!»

Yo‘lga tushdi, to‘nkaga o‘tirdi ammo tezdin:
 – Eh, bu naqadar dahshat! Nechun bunday yolg‘izman?! –



Yondaftarga qayd qildi undov belgisi bilan:
«Shu bugunoq qo‘zichoq, yo‘q-yo‘q, uloq asrayman!»

Uloq uchrasa dedi: «Uni asrab netaman?
Yo‘q-yo‘q! Qayiqcha yasab, uygа suzib ketaman!
Yelkan tikishim kerak... Faqat igna bo‘lsa bas...
Ish ignadan boshlansin! Aslo ulodan emas!»

Sim topib undan igna yasamoqchi bo‘ldi u,
Iгна yasab o‘tirsa, qalbin qamradi qo‘rquv:
– Arslonlar kelib qolsa, unda qochgum qayonga?
Bekinishga uyim yo‘q! Yem bo‘laman arslonga!

Uyni o‘ylay boshladi, undan keyin qayiqni...
Yeyishga mevalarni, ichishga bir ariqni...
Eshik, qulfni o‘yladi, qalpoqni va uloqni,
Nedan boshlashni bilmay, xo‘p shishirdi qovoqni!

Bironta ish qilmasdan ming turli reja ko‘rdi,
Bir xurmoning tagida bekorgina o‘tirdi.
Yaxshilar o‘tib ketsa, uni qidirmay, ko‘rmay,
Yuz yil o‘tirarmidi hanuz o‘rnidan turmay...

Ballada

QIROLNING SARYOG‘LI NONI HAQIDA

Hazrat oliylari –
janob qirolimiz
dediki hazrati oliyasiga:
– Sutchiga tayinla –
yangi saryog‘ qo‘shsin
tongda beradigan nonushtasiga.



Saroy sutchisi der:
 – Xo‘p-xo‘p, malikam
 uxlamay govmishga
 aytaman borib.–
 Saroy sutchisi tez
 og‘ilga chopar,
 yotgan sigirga der
 oghlantirib:

– Hazrat oliylari
 tonggi choyiga
 qittay yangi saryog‘
 talab qildilar!

Uyqusirab yalqov sigir
 dediki:
 – Qo‘shoyoq-shoxsizlar zoti
 shu kunda
 meva qiyom,
 marmelad iste‘mol qilar!

Saroyning sutchisi:
 – Shundaymi? – dedi.
 Darhol malikaga
 berdi ma‘lumot:
 –Yuz bor tuting ma‘zur
 bu taklif uchun –
 Siz surtib bersangiz nonga marmelad,
 Qirolga ham manzur,
 ham bo‘lar madad!

Malika,
 Hazrati Oliylariga



Yo‘l-yo‘lakay dedi
Birdan bemavrid:

– Jonim, nonushtada saryog‘ o‘rniga
totib ko‘rmaysizmi
biroz marmelad?

– Qanday befahmlik! –

Og‘rindi qirol.

– Evoh, xudoyim-ey! –

dedi betoqat.

– Rahm qil, yo Rabbim! –

Xo‘rsindi behol,

Karavotga yotdi

bo‘lib bir holat.

– Hali hech kim meni... –

dedi o‘rtanib,–

Dunyoda hech kimsa meni hech qachon,

Injiq deb bilmagan

Tushunasanmi?

Men bor-yo‘g‘i saryog‘

so‘radim faqat,

Nahot shu ham senga

bo‘lsa mashaqqat?

Shunda qirolicha:

– Ha, to‘g‘ri! – dedi,

Sutchini topishga so‘radi muhlat.

Saroy sutchisi ham:

– Ha, to‘g‘ri! – dedi.

Yugurdi og‘ilga

hovliqib g‘oyat.



– Nima gap? – so‘radi
 saroy sigiri.–
 Men sizga biron so‘z
 aytdimmi bequt?
 Mayli, qatiq oling,
 shirguruchga – sut,
 Saryog‘ ham berishim mumkin,
 ha, albat.
 – Omon bo‘ling! – dedi
 saroy sutchisi.
 Qirolga patnida
 yubordi saryog‘.
 Qirol yayrab ketdi:
 – Saryog‘mi? Saryog‘!
 Oh, qanday mazali!
 O, qanday lazzat!

–Hech kim, hech kim,– dedi
 o‘rnida iyib.
 –Hech kim, hech kim,– dedi
 xalatin kiyib.
 –Hech kim, hech kim,– dedi
 sovunda pishib.
 –Hech kim, hech kim, – dedi
 zinadan tushib.–
 Yoqtirganim uchun
 saryog‘li nonni,
 Zolim yo dovdur deb
 atolmas meni!

ROBERT GREYVZ



Robert Greyvz 1895-yilda Angliyaning poytaxti Londonda tugʻilgan. Otasi mashhur irland shoiri A. P. Greyvz edi. Birinchi jahon urushi boshlanganda Robert Greyvz koʻngillilar qatorida urushga ketdi. Ingliz shoiri Zigfrid Sassun (1886–1967) bilan bir polkda xizmat qildi. Urushdan keyin Oksford universitetini bitkazdi, Misrning Qohira va

Mayorka shaharlarida Angliya adabiyoti tarixidan dars berdi.

Greyvz oʻz asarlarini 1910-yillardan boshlab eʼlon qila boshlagan. Keyinchalik, Misrdan oʻz vataniga qaytganda, koʻrgan-kechirganlari toʻgʻrisida bir qancha romanlar, qissalar, maqolalar yozadi. Bular bir necha jildni tashkil etadi. Shuningdek, u juda koʻp sheʼriy kitoblarning ham muallifidir. «1971–1972-yil sheʼrlari» (1972), «Ogʻir savollar, yengil javoblar» (1972) nomli sheʼriy toʻplamlari katta shuhrat qozongan. Greyvz oʻz sheʼrlarida mangu goʻzallik haqidagi orzularni hozirgi zamon hayotidagi, bugungi odamlar ichidagi buzilishlarga qarshi qoʻyadi. Sheʼrlaridagi murakkab ohanglar tizimi, ichki qofiyalar, vaznlarning boyligi ularga oʻzgacha bir salobat baxsh etadi.

Robert Greyvz ajoyib kitoblar yozarkan, hamma vaqt bolalarni xayolining bir chetida olib yurardi. Deyarli ellik yildan beri sheʼr yozib yurgan shoir 1960-yilda oʻzining «Ikki pullik gʻijjak» (inglizchasi «Bir penniga olingan skripka») nomli bolalarga atalgan ilk sheʼrlar toʻplamini eʼlon qildi va darhol kichkintoylarning sevimli shoiriga aylandi. Bundan ilhomlangan Robert Greyvz



1964-yilda «Bolalar uchun» deb alohida katta kitob chiqardi. Bu kitobdagi she'rlarni o'qisangiz, o'zingizni xuddi sehrli olamga kirib qolganday his qilasisiz. Ularning hammasi xuddi ertakka o'xshaydi, ayni chog'da hammasi hayotdagiday.

Robert Greyvz she'riyati, garchi Angliya hayotidan hikoya qilsa ham, she'r qahramonlari nimasi bilandir boshqa barcha odamlarga o'xshaydi. Qirol Dunkan, liftchi bola, Uels yolg'onchilari singari kishilar qaysi mamlakatda yo'q deysiz?

Keling, yaxshisi, Robert Greyvz she'rlari bilan o'zingiz tanishing. Ularni yaxshi ko'rib qolishingizga ishonamiz.

Greyvz she'rlari o'zbek tilida ilk bor O'zbekiston radiosida va «Ma'rifat» gazetasi sahifalarida e'lon qilingan.

Robert Greyvz 1985-yilning 7-dekabrida Malyorkaning Deya qishlog'ida 90 yoshida vafot etdi.

She'rlar

CHINNI LAGAN

Bir chinni laganni qay kun bozordan
Arzimagan pulga sotib oldilar,
Uyga keltirdilar o'tib guzardan,
Ko'rinarli joyga qo'ya qoldilar.

–Muzeybop ashyo bu! – dedi bir olim,
Cho'ntak lupasida kuzatgach ko'p bor.
Laganni javonga qo'ydi qay zolim?
Buni vitrinaga qo'ymoqlik darkor!

Kimda-kim laganga tashlasa nazar,
U o'zi haqida aytardi o'lan:
«Meni sotvolmasa janoblar agar
Halok bo'lar edim lash-lushlar bilan.»

Laganning egasi g'ururga botib
Der: – Bunga berdim men arzimasa tanga!–



Fabrika tamg'asin kuldi ko'rsatib,
 Arang ko'rinardi ko'zga u tamg'a.
 Yetar, lagan endi unutsin barin –
 Arzimaydi bu gap so'ylab yurishga.
 Uyning hamma oddiy ashyolariday
 Hamma narsalarday yarasin ishga.

Unda keltirilsin xilma-xil taom –
 Pishiriq, shirin non, boshqa narsalar,
 Yayrayotgan biron mehmon-u izlom
 Soz bo'lardi uni payqamasa gar.

Chinakam hayotga kirib borsin u,
 Bilsin o'choq nima, dasturxon nima.
 Agar kimdir uni sindirsa bexos
 Unga chin ko'ngildan achinsin hamma.

ELLIS-JIN

Bir kuni qirg'oqqa yarim kechasi
 Olis dengizlardan keldi bir kema,
 Qora machtalari yaydoq – yelkansiz –
 Ichida ko'rinmas hech kim, hech nima;
 Ustin qoplagandi dengiz o'tlari,
 Yam-yashil o'tlarki, harir, jimjima.
 Hammaning bo'linib shirin tushlari
 Yosh-qari kelgandi ko'rfazga tomon.
 Sohilda talay vaqt turishdi jim-jit,
 Hech nima tushunmay odamlar hayron:
 Oydinda huvillab bo'm-bo'sh bu kema
 Arvohday indamay turardi bejon.
 Vahima, qo'rquvlar devorin yorib
 To'satdan yangradi yangroq bir sado:
 – Odamlar, bu kema Ellis-Jin-ku! – deb
 Qichqirdi, ko'zlari xira bir momo,–



Mening Jon o'g'lim ham ketgandi unda,
 Ummonga ketgandi u mash'um asno.
 Bilaman, Ellis-Jin cho'kkan ummonga,
 U yoqda to'liqlar qop-qora bo'lar.
 Suvlar ostidagi o'tlar ichida
 Balchiqqa ko'milib kemalar o'lar.
 Uyiga qaytgisi kelgan Ellis-Jin
 Va qaytgan sohilga, bosib ko'p yo'llar...
 Xotinlar dong qolib yoqa ushlaradi,
 Erkaklar kulishdi sho'rlik momodan.
 Ammo ustlarini o'tlar qoplagan
 Bu kema, to'lgan oy chiqqan asnoda,
 Olib dengizlardan nechun qaytganin
 Sharhlolmasdi hatto dono daho-da.
 Ha, chindan Ellis-Jin qaytdi uyiga,
 Rangpar yog'dularin to'kardi osmon,
 Ammo palubaga chiqib ko'ray deb
 Hech kimsa bormadi suzib u tomon.
 Shundan so'ng arvoqday indamas, bo'm-bo'sh –
 Kema g'oyib bo'ldi, yorishganda tong.

DUNKAN DEGAN QIROL

Dunyodan zerikkan qari bir qirol –
 Ismi Dunkan o'zi – chiqazdi farmon.
 «Menga bir qiziqchi topilsin darhol
 Har kun yangi ertak aytsin kech tomon.
 Ammo bilib qo'ysin, bitta ertakni
 Ikki marta aytsa, unga shafqat yo'q,
 Men ham chaqiraman ikki erkakni
 Buni qatl eting deb beraman buyruq.»
 Qiziqchi qirolga aytadi ertak,
 Unda bir Jek degan bola bor qiziq –
 Ukasi Jok kiyib yurganda yaktak,



Yoqasidan asta tashlar itbaliq.
 Ammo Jok parvo ham qilmaydi bunga –
 Qo‘rqqoq emasdi-da anavinaqa,
 «Xap senimi» deya qorong‘i tunda
 Jekning etigiga solar qurbaqa.
 Qiziqchi minglarcha ertak aytadi,
 Bilgan ertaklari bitar nihoyat.
 Shunda u birinchi kunga qaytadi –
 Jek va Jok ertagin qilar hikoya.
 – Sho‘x bolalar ekan, – xaxolar Duncan, –
 O‘zing ham juda zo‘r qiziqchisan,– der,–
 Endi bundan buyon har kun har kecha
 Jek va Jok haqida aytib beraver.

INGLIZ O‘RMONIDA

Bizning o‘rmonimizda
 Bo‘lmas alvasti, jinlar.
 Ko‘zingizni quvnatar
 Ko‘m-ko‘k eman, qayinlar.
 Shamollari vahmsiz,
 Silar yuzlaringizni,
 Asrar turli balodan
 Yorug‘ ko‘zlaringizni.
 Bu yerda arvoqlar yo‘q,
 Ajinalar yo‘q sira.
 Shimingizga osilmas
 Chaqir tikonlar xira.
 Yorug‘lik yo‘llarini
 Qorong‘ulik bosolmas.
 Yomon duo, qarg‘ishlar
 Ichingizni qisolmas.
 Bunda yurmas tentirab
 Jodugarlar, shomonlar.
 O‘tloqlarning ustida



Shivirlashar emanlar.
 Quyosh botgan pallada
 Qarasangiz osmonga
 Oltin taroq shu'lalar
 Egiladi o'rmonga.
 So'qmoq bo'ylab odamlar
 Ketar uyi-uyiga,
 O'ynab kulib yetadi
 Har kim tepa to'yiga.

ILDAMLIK VA SUSTKASHLIK

U hozirjavobdir,
 Tez o'ylay bilar.
 Men gapga no'noqman,
 Gap sekin kelar.
 U tez so'ylab tinchir,
 Elni aylar gang.
 Men esa so'ylashni
 Boshlayman arang.
 U, chaqmoq fikriga
 Keltirar imon.
 Men sokin fikrimdan
 Qilaman gumon.
 U, barcha so'zlarin
 Haq deb bilar, ha!
 Men esa so'zimdan
 Qilaman shubha.
 Adashganin sezsa
 U gangib qolar.
 Men adashsam, ko'nglim
 Bezovta bo'lar.
 Unga pand beradi
 Uning shiddati,
 Meni asrab qolar



Sustlik illatim.
 Uni adashtirar
 U bilgan bilim.
 Men esa adashib
 Topaman yo'lim.

HECH KIM

Bizni «hech kim» so'zi
 Doim qilar ziq.
 «Hech kim»da kimdir bor,
 Kim u – noaniq.
 Uyimizda bazm quradi
 Hech kim.
 Bekinmashoq o'ynab yuradi
 Hech kim.
 Jimib kashta tikkan
 Qizchaday hech kim
 Bog'da jimib qolar
 Burchakda hech kim.
 Hech kim kelar –
 Buni bildirmas. Biroq
 Kelib ketganini
 Eshitar quloq.

Hech qachon
 Hech qayga ketmaydi
 Hech kim,
 Lekin yo'lda bo'lar
 Hech kim
 Har doim.
 Hech kim bizdan qo'rqar
 (Aytgan achasi) –
 Polni g'ijirlatib
 O'tar kechasi.

DONALD BISSET

Donald Bisset – mashhur bolalar yozuvchisi, rassom, kinoaktyor va rejissyor bo‘lib, 1910-yilda Angliyaning Brendford shahrida tug‘ilgan. Juda kichik hajmli ertaklar olamini yaratgan. Qiziq-qiziq voqealarni o‘ylab topib, ularni ertakka aylantirib, keyinchalik ularning bir qanchasini kino qilgan va o‘zi shu kinolarda rol ham o‘ynagan. O‘nlarcha qiziq ertaklarni Evon-Stretfordidagi Shekspir Qirollik teatrida sahnalashtirgan.



Donald Bisset ilk ijodini London televideniyasining topshirig‘i bilan ertaklar yozishdan boshlagan. U o‘z ertaklarini ko‘rsatuv uchun tayyorlar va o‘zi o‘qib berardi. U juda usta aktyor edi. O‘z ertaklariga juda ifodali va qiziq rasmlar chizardi. Eshittirish boryo‘g‘i 8 daqiqa davom etardi, qog‘ozga tushirilgan matn ham 2-3 sahifadan oshmasdi.

1954-yilda uning «O‘zing o‘qi» degan kitoblar turkumining birinchisi bosilib chiqdi. Keyin shu yilning o‘zida «Siz nimani xohlasangiz, o‘shani aytib beraman» degan yangi to‘plam chop etildi. «Qolganini keyin aytaman», «Axir bir kun aytib beraman» degan to‘plamlarini chiqardi. Keyin uning navbatdagi ertaklari – Yak degan birgina qahramonli «Yo‘lbars bilan suhbatlar», «Miranda degan o‘rdakning sarguzashtlari», «Tutunlaqabli ot», «Tik-tak amakining sayohatlari», «Changalzorda kezish» kabi kitoblari bosilib chiqdi. Barcha kitoblarining rasmlarini o‘zi ishlar edi.



Donald Bisset Angliyada 57 ta film va teleserialda aktyorlik qilgan. Birinchi roli «Atrofdan aylanib yurish» filmi bo‘lib, 1949-yilda katta ekranga chiqqandi. 1978-yilda «Atlantida dohiylari» filmida kichik bir rolni ijro etdi, ammo butun jahon sa‘nat ahllarining yodida qoldi. Eng oxirgi marta 1991-yilda «Haqiqiy inglizcha qotillik» filmida mister Grim rolini o‘ynadi.

Donald Bisset 1995-yilda Londonda vafot etdi.

Ertaklar

ShShSh!!!

Dunyoda shunaqa voqealar ham bo‘lib turarkan-da – bir kuni desangiz Shshsh yo‘qolib qoldi! Yaxshiyamki, uni bir mirshab kishi topib oldi va mirshabxonadagi bir javonga yashirib, e‘lonlar taxtasiga e‘lon osib qo‘ydi.

Hamma yo‘lovchilar taxta yonida to‘xtab, bu e‘lonni o‘qishardi.

– U yerda nima yozilgan ekan? – deb so‘radi bir bola o‘z oyisidan.

– Shshsh yo‘qolganini yozishipti.

– Qanday qilib yo‘qolibdi?– yana so‘radi bola.

– Shshshshshsh, indama!

Qo‘shni qahvaxonada ishlaydigan ofitsiant xotin ham bu e‘lonni o‘qidi va choynak bilan qahva qaynatgichning Shshshlari yo‘qolmadimikin, deb ko‘rgani o‘choqboshiga chopib ketdi. Ammo choynak ham qahva qaynatgichlar qaynashda davom etar, ularning Shshshlari joy-joyida edi.

E‘lonni o‘qigan kinorejissyor studiyaga ovoz tasmlari yoniga oshiqdi. Bu haftada bor-yo‘g‘i bir marta uning Shshshsi o‘tgan edi. Hamma Shshshlari joy-joyida ekan.

Parovoz mashinisti esa e‘lonni ko‘rib, shosha-pisha parovozi-dan xabar olgani vokzalga yugurib ketdi – birdan uning parovozi Shshshini yo‘qotgan bo‘lsa-ya!



Xudoga shukur, parovozning ham hamma Shshshlari joy-joyida edi. Har qanday haqiqiy parovozning ko'p Shshshlari bo'lishi kerak! Bo'lmasa parovoz:

– Shshsh-shshsh, shshsh-shshsh...– qilolmaydi.

Keyin e'lonning oldiga it yetaklagan bola keldi. It vovulladi. U juda vovullashni yaxshi ko'rardi, umuman hamma itlar vovullashni yaxshi ko'rishadi.

– Qani bas qil!..– dedi bola unga shishillab.

It hayronlikdan vovullashni to'xtatdi va atrofni aylanib, hidlay boshladi.

U o'zicha Shshsh qayoqqa ketdi, deb izlar edi. Jinnivoy-ey, odamning kulgisini qistatadi: Shshshning hidi bo'lmasligini bilishi kerak, axir.

Bola e'lonni o'qidi va zinadan ko'tarilib mirshabxonaga kirdi.

– Uni men yo'qotgandim!..– dedi u.

– Nimani yo'qotganding? – deb qayta so'radi mirshab.

Shunda it yana vovulladi.

– Shshshshshsh! – mirshab unga qarab shishilladi.

– Mana shu narsani! – dedi bola.

Mirshab javonni ochdi va Shshshshshshni chiqardi.

Shshshshshsh! o'zining topilganidan juda suyunib ketdi.

– Mana bu yerga qo'l qo'ying! – dedi mirshab, bolaga.

It yana vovulladi.

– Shshshshshsh! – dedi unga bola.– Iltimos, shshshshshshshov-qinlama!

Shunda it shshshshshshshovqinlashni to'xtatdi.

BINKI LAQABLI YO'LBARS BOLASI

Bir kuni yo'lbars ona shirin pishiriq pishirishni o'ylab qo'ydi. U xamir qorishdan oldin jon-jahdi bilan shunday elak eladiki, butun oshxonani, uchib yurgan un bilan qand upasi qoplab oldi.



Xuddi shu paytda yo'lbars bola Binki tug'ildi. Yo'lbars ona ko'zini ochib unga qaradi-yu, hayron bo'lib qoldi:

– Iya, teringdagi yo'l-yo'l guling qani? Ha mayli, tering yo'l-yo'l bo'lmasa ham, baribir seni yaxshi ko'ramiz.

Ammo Binki yo'lbarslar yo'l-yo'l bo'lishi kerakligini bilardi. U vaqtni qo'ldan boy bermay, yo'l-yo'l naqsh izlagani chopib ketdi.

Birinci bo'lib unga bir serjant uchradi. Uning yengida uchta yo'l-yo'li bor edi. Binki unga:

– Yo'l-yo'lingdan birini menga ber, iltimos,– dedi yalinib.

– Harbiy odamga gapirganda qaddingni rost tut! – Serjant yo'lbars bolaga baqirib berdi. – Mening ortiqcha yo'l-yo'lim yo'q.

Binki yana chopib ketdi va yo'lida cho'yan panjara ko'rib qoldi. Bir kishi uni bo'yayotgan ekan. Binki u kishi ishni tamomlaguncha kutib turdi, so'ng u ketgan zahoti yugurib borib, oldin o'ng yoni bilan, keyin chap yoni bilan panjaraga suyandi. Bo'yoq uning juniga yuqdi va u yo'l-yo'l bo'lib qoldi.

Binki o'zining yo'l-yo'l naqshlarini oyisiga ko'rsatgani uyi tomonga otildi. Ammo kun jazirama, quyosh rosa qattiq qizdirayotgan edi, ustidagi bo'yoqlar erib ketib, yerga tomchilab toma boshladi, birpasda yana Binkida bir yo'l ham naqsh qolmadi.

Shu payt unga bir zebra uchrab qoldi. – Voy-bo', faqat sirtining o'zida shuncha yo'l-yo'l naqshi bor-a! Binki hayratdan qotib qoldi.

– Bu axir adolatdan emas-ku!

U o'tirib, achchiq-achchiq yig'lashga tushdi. Zebra undan:

– Nega yig'layapsan bolakay? – deb so'radi.

– Ne... ne... nega men yo'l-yo'l emasman? – zorlandi Binki.

– Voy bechora-ey, – dedi Zebra va mehr-shafqat bilan yo'lbars bolani yaladi.

– Sen juda shirin, yoqimli ekansan-u, – deb yana bir marta yaladi.– Xuddi shirin pishiriqqa o'xshaysan-a.

Zebra uni yana va yana yaladi, shunda birdan Binkining sirtida birin-ketin qora-qora yo'l-yo'l naqshlar paydo bo'ldi!

U chopib uyiga keldi va oyisiga qarab qichqirdi:



– Oyi! Ura, men yo‘l-yo‘lman!

– Iye, rost-ku! Ona yo‘lbars suyunib ketdi.– E, kim o‘ylabdi, deysan? Men shirin pishiriq tayyorlayotganimda, sening yo‘l-yo‘l naqshlaringni qand upasi bilan un bosib qolgan ekan, shekilli.

Ona yo‘lbars juda mamnun edi, ertasiga u zebrani choyga taklif qildi. Choy dasturxonidan zebraga bir quchoq pichan, Binkiga esa bir burda shirin pishiriq tegdi.

BLEKI BILAN REJI

Bu dunyoda bir ot bor edi, Reji deyishardi.

Reji ertalablari sut tashirdi va har kuni yo‘lda bir oshnasi – Bleki degan kichkina qora itni uchratardi.

To‘g‘risini aytganda, Rejiga sut tashish uncha yoqmasdi. Doim arg‘umoq ot bo‘lishni va poygalarda sovrinlar olishni orzu qilardi. Bleki ham o‘z taqdiridan qanoatlanmas, ochig‘ini aytganda, oyoqlari kaltaroq bo‘lsa-da, haqiqiy tozi itlarday yugurishni orzu qilardi.

Bir kuni ular tushlikdan keyin Rejining otxonasida «oluv-qo‘shuv» o‘ynab o‘tirishgandi, birdan Blekining xayoliga bir fikr kelib qoldi:

– Reji, menimcha, biz ko‘mir yeyishimiz kerak! Parovozlar ko‘mir yegani uchun o‘qday vizillab uchishadi.

Ular bu masalani yaxshilab muhokama qilgach, baxtlarini sinab ko‘rmoqchi bo‘lishdi.

Ikkovlon ko‘mir saqlanadigan omborga kirishdi, ammo endigina bir burda-bir burdadan ko‘mirni olishlari bilan, tuyqusdan, naq Yo‘qol xonim kelib qolsa bo‘ladimi!

– Voy yaramaslar-ey! Ko‘mirimni tashib ketyapsizlarmi? Qani yo‘qol ko‘zimdan ikkoving ham!

U bir bo‘lak ko‘mir olib, ularga otdi. Reji bilan Bleki tiraqaylab ko‘chaga qochishdi.



Ular tug'ilgandan buyon bunday tez chopmagan edilar! Xuddi shu paytda, deng, shahar hokimi derazadan qarab qoldi-yu! Hokimning ismi Uilyam edi.

– Vuh, tezlikni qaraang! – deb qoyil qoldi u. – Garov boylashaman, bu ot poygada qatnashsa, birinchi sovrinni oladi. It-chi, it! Tozidan ham tez pirillab ucharkan-a! O'lay agar, bular bittadan nishonga arzishadi.

Shunday qilib u Reji bilan Blekiga bittadan nishon olib berdi.

SHAHZODA ISMLI PINGVINCHA

Kunlardan bir kuni imperator pingvinlari oilasidan bir pingvin bola – uning oti Shahzoda edi – tuxum ichida qanday qilsa tezroq dunyoga kelishini o'ylab o'tirardi. Tuxum ichida o'tiraverish joniga tekkandi-da! Tezroq chopib borib, boshqa pingvinlar bilan o'ynagisi kelardi.

U tumshug'i bilan po'stloqni bir urdi, oyoqlari bilan bir-ikki tepdi. Keyin bor kuchi bilan dukullata boshladi, shunda po'stloq «qirs!» etdi-yu, yorildi.

Uf, eson-omon tug'ilib oldi-ye! Oyisi pingvin xonim unga qaradi. Qaradi-yu ko'zlariga ishonmadi. «Voy tavba, – o'yladi u. – Nega bu jigarrang? Hamma pingvinlarining sirti-yu qanotlari qora, qorni oq. Ehtimol, jigarrang bo'yog'ini yuvib tashlash kerakdir, shunda bu ham oq-qora bo'lar?»

U tumshuqlari bilan Shahzodaning jigarrang bo'yoqlarini qirib tashlashga urindi, ammo bundan hech narsa chiqmadi. Shahzoda jigarrang, qanday bo'lsa shundayligicha qoldi.

– Topdim-topdim! – dedi ona pingvin xonim va javondan asal qo'yilgan tovoqni oldi.

U, Shahzodaga asal surtib chiqdi va pingvin bola sirtidagi bu asalni yalab, jigarrang bo'yog'ini ham yo'q qilib yuborish uchun Ezma ismli bir oq ayiqni chaqirib keldi. Ezma xursandlik bilan Shahzodaning hamma yog'ini yalay boshladi.



– Voy-voy, qitig‘im kelyapti! – kuldi Shahzoda.

Ammo ayiq bunga e‘tibor bermay, uni yalashda davom etdi. U, Shahzodani yalab bo‘lgandan keyin, ona pingvin xonim qarasa, o‘g‘li o‘sha-o‘sha jigarrangligicha qolgandi.

Shunda Ezma bir maslahat berdi:

– Shahzoda qor qoplangan tepalikka chiqsin, keyin tepadan pastga dumalasin, balki, shunda qor uni jigarranglardan tozalar, – dedi.

Shahzoda tepalikka chiqib, pastga dumaladi. So‘ng qoqindi, silkindi, ammo jigarrangi, qanday bo‘lsa shundayligicha qoldi.

Ona pingvin xonim:

– Boyqush bilan gaplashib ko‘rish kerak, – degan qarorga keldi. – U, dunyodagi qushlar ichida eng donosi.

Boyqush unga:

– Namuncha kulgilisan-a, ona pingvin xonim, – dedi. – Pingvinlar jigarrang bo‘lib tug‘ilishini bilmaysanmi? Ular sal ulg‘aygandan keyin sirti qorayib, qorni oqaradi, axir!

– Ha, ha, to‘g‘ri aytasan! Butunlay yodimdan chiqibdi! – deb xitob qildi ona pingvin xonim.

Hammasi u aytganday bo‘ldi.

Shahzoda sal ulg‘ayishi bilan rangi o‘zgardi, hamma pingvinlar kabi sirtidan qora patlar o‘sib chiqdi, qorni esa oqardi.

ZAYTUNOY VA CHAMANDAGUL

Bor edi-yu yo‘q edi, bir chag‘alay bor edi. Oti Zaytunoy edi. U bir dengizning qoq o‘rtasidagi orolda bir o‘rtog‘i, Chamandagul degan toshbaqa bilan birga yashardi.

Zaytunoy kun bo‘yi dengizda baliq tutardi. Chamandagul esa uyda, sersoya daraxt tagida karam g‘ajib o‘tirar va qo‘shiq aytardi. Uning juda yaxshi ovozi bor edi.

Bir kuni orol yoqalab Charli degan och laylak uchib o‘tdi. Chamandagulni ko‘rib:



«Eh, mana bu omadni qarang! Bu toshbaqadan tuzukkina tushlik ovqat qilsa bo'ladi», deb o'yladi.

Laylak pastga tushdi, tumshug'iga toshbaqani ilib uchdi-ketdi.

Uyiga kelib, mo'jazgina uyasining eshigini ochdi va Chamandagulga:

– Bu yoqqa kir! Biznikida karamdan ko'pi yo'q. Istaganingcha yeb, semirib yotaver! – dedi.

Keyin eshikni taraqqitib yopdi va ustidan qulflab qo'ydi.

Zaytunoy baliq ovidan qaytib keldi va Chamandagulni qidira boshladi, ammo toshbaqa hech yerda yo'q edi. Qorong'i ham tushdi, Zaytunoy esa Chamandagulni qidirishda davom etardi. Nihoyat, qop-qorong'i o'rmon ustidan uchib o'tayotganda, o'ziga tanish qo'shiqni eshitib qoldi.

– Iya, kim aytyapti, nahotki Chamandagul bo'lsa?

Zaytunoy ovoza qarab uchdi va o'rmon ichiga pastladi va oydinda bechora Chamandagul ma'yus-ma'yus qo'shiq aytayotganini ko'rdi. Uning yonida, uyada Laylak uxlab yotardi.

– Ovozingni chiqarma, jim bo'l, – pichirladi Zaytunoy.

U kuchli tumshug'i bilan uyaning novdalarini cho'qib-cho'qib tashladi. Shunday qilib Chamandagul ozodlikka chiqdi.

Evoh, ular uylaridan haddan ziyod uzoqda edilar, Chamandagul esa uchishni bilmasdi. Sol yasashga to'g'ri keldi va ular uyga dengiz bo'ylab suza ketdilar. Tun va bo'ron ularga bas kelolmadi! Zaytunoy sol ustuniga ip bog'lab, shamolga qarshi solni tortdi. Toshbaqa esa eshak bilan uni kerakli tomonga burib bordi va Zaytunoyga va o'ziga madad bo'ladigan sho'x-sho'x qo'shiqlar aytdi.

Oxiri bir amallab o'z orollariga yetib kelishganda, Zaytunoy Chamandagulni dumidan daraxtga boylab qo'ydi va:

– Mana endi sen xavf-xatardan qutulding! – dedi.

Agarda siz qachondir bu orol yoqalab o'tayotganingizda oydinda qo'shiq eshitib qolsangiz, bilingizki, Chamandagul kuylayotgan bo'ladi.



JO DEGAN BOYQUSHNING SAYOHATI

Peddington degan bekat boshlig'ining qizi yilda bir marta uylarinning tomini yuvar va tomda yashovchi boyqushlarni pastga uloqtirardi, chunki ularning qilmishidan tom sirpanchiq bo'lib ketardi.

Jo degan boyo'g'li yanagi safar tom yuvadigan mavsumda bir kunga buvisi turadigan qishloqqa mehmonga ketishni ko'ngliga tugib qo'ydi. Kimga yoqadi tomdan yerga chilparchin bo'lib tushish?!

U buvisining uyigacha boradigan poyezdga mindi. Parovozning oti Shervud, haydovchisi – mister Bostok edi.

– Sening chiptang bormi? – so'radi Bostok boyo'g'lidan.

– Shubhasiz! – javob berdi Jo va mister Bostokka chiptasini ko'rsatdi.

Ular poyezdda ketdilar.

Buvisi yashaydigan bekatga kelishlari bilan, Jo buvisinikiga shoshildi. Buvisining oshxonasida kunini maza qilib o'tkazdi va ancha vaqtgacha «jildir-jildir» suv krani bilan o'ynadi.

Shervud ham yaxshigina dam oldi va ko'mirga qornini to'y-g'azdi. Mister Bostok esa choy ichdi, muraboli non yedi.

Ammo u pala-partish ovqatlanib, murabboni oqizib, temir yo'lni ham isqirt qilib tashladi. Shuning uchun qayta yo'lga tushganlarida, Shervud joyidan siljiyolmadi – g'ildiraklari izga chip-chip yopishardi.

– Voy-ey, – dedi u, ammo ingillab o'tirmadi. – Puff! – dedi u. – Puff-puff-puff. Ammo joyidan siljiyolmadi.

Mister Bostok Joni, Jo esa buvisini yordamga chaqirdi. Hammalari – mister Bostok va Jo, buvisi va buvisining Tom degan mushugi bor-yo'q kuchlarini ishga solib kuchana-kuchana Shervudni itarib ko'rishdi... ammo Shervud joyida qotganча turaverdi.



Birdan Joning miyasiga:

«Mushuklar yaloqi bo‘ladi-ku!» – degan fikr kelib qoldi.

U Tomga:

– Sen izlarni yalab olsang bo‘lmaydimi? – dedi.

Tom maza qilib temir yo‘lga to‘kilgan murabboni yalab chiqdi va ketidan suv ichib yubordi.

Jo uyiga qaytarkan, Peddington bekati osmonida yulduzlar so‘ngan, kun boshlangan edi. Shunda birdan uni uyqu bosdi. Axir, boyqushlar kunduzi uxlaydi-da!

U tomga kelib qo‘ndi va Chaqna, oqshom yulduzi, – degan sevimli she‘rini aytmoqchi bo‘ldi. Ammo buning o‘rniga bunday she‘r aytib yubordi:

Chaqna, Shervud yulduzi,
 Uchsin London poyezdi.
 Nuring soch kichiklarga,
 Mushuklar, kuchuklarga
 Ayt, bo‘ldi, deb turar payt!
 Boyqushlarga alla ayt...





MUNDARIJA

Tarjimondan	3
-------------------	---

VILYAM BLEYK

She'rlar

Qilich va o'roq	5
Yo'lbars	5
Ko'rish mumkin	7
Tush	7
Xursand bola	8
«Beozor qo'shiqlar»ga boshlama	8
Oqshom qo'shig'i	9
Kulayotgan qo'shiq	10

EDVARD LIR

She'rlar

Edvard Lir o'zi haqida	13
Ikki otlarning sayrga chiqishi	14
O'rdak va kenguru	16
Uzunoyoq chivin bilan qo'li kalta pashsha	17
Oyoqlari barmoqsiz Pobb1	22

ROBERT STIVENSON


Ballada

Supirgio't asali	26
------------------------	----

REDYAR KIPLING

She'rlar

Agar	31
Otliq va ot haqida	33
Amazonkada	33
Mening olti xizmatchim	34

 Mushuk o't yonida	35
Kichkina maymuncha	36

Ertaklar

Yer tepingan parvona	37
Tuyaga o'rkach qayoqdan kelgan?	49
Karkidonga bunday teri qayoqdan kelgan?.....	54
Kitbaliqqa bunaqa halqum qayoqdan kelgan?	57

UOLTER DE LA MER

She'rlar

Shaqir-shuqur	64
Otliq	64
Har narsa kumush	65
Tinglovchilar	65
Arabiston.....	67
Aqiq.....	67
G'a!	69
Tegirmonchi	69
Bir bosh uzum.....	70
Parqu bo'lar bolishda	70
Qut ulashuvchi farishtallar	71
Deraza oldida	72
Bekinmashoq o'ynaymiz	72
Qaydadir.....	73
Hayhot.....	75

ALAN MILN

She'rlar

Er yigitlar va xonimlar.....	78
Bir kuni men bo'ldim bir uyda.....	79
Ikki karra	80
To'rtinchi stul.....	81
Arg'imchoq qo'shig'i.....	82
Ish bilarmon dengizchi.....	83



Ballada

Qirolning saryog'li noni.....	84
-------------------------------	----

ROBERT GREYVZ

She'rlar

Chinni lagan.....	89
Ellis-Jin.....	90
Duncan degan qiroL.....	91
Ingliz o'rmonida.....	92
Ildamlk va sustkashlik.....	93
Hech kim.....	94

DONALD BISSET

Ertaklar

Shshsh!!!.....	96
Binki laqabli yo'lbars bolasi.....	97
Bleki bilan Reji.....	99
Shahzoda ismli pingvincha.....	100
Zaytunoy va Chamandagul.....	101
Jo degan boyqushning sayohati.....	103

Adabiy-badiiy nashr

JAHON BOLALAR ADABIYOTI
ANGLIYA

Muharrir *Abdukamol Abduljalilov*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Texnik muharrir *Yekaterina Koryagina*
Musahhah *Fotima Ortiqova*
Kompyuterda sahifalovchi *Umida Valijonova*

Nashr. lits. AI № 154. 14.08.2009

Bosishga 2016-yil 15-fevralda ruxsat etildi.

Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$, Times New Roman garniturasida.

Ofset bosma. 6,28 shartli bosma taboq. 4,51 nashr tabog'i.

Adadi 500 nusxa. 191 raqamli buyurtma.

Bahosi shartnoma asosida.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa

ijodiy uyida chop etildi.

100128. Toshkent, Labzak ko'chasi, 86.

Telefon: (371) 241-25-24, 241-48-62, 241-83-29

Faks: (371) 241-82-69

www.gglit.uz info@gglit.uz